

**O'ZBEKISTON RESRUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI YO'NALISHI**

4-KURS 402-GURUH BITIRUVCHISI

TOJIBOYEVA VILOYATXON ERGASHBOY QIZINING

BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

**“UVAYSIY IJODIDA JANRLAR TAKOMILI”
mavzusidagi**

**BITIRUV-MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

dots. F.Karimova

Namangan – 2016

M U N D A R I J A

Kirish	3
I bob. Uvaysiy va uning lirik merosi	6
1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari	6
1.2. G'azal janri rivojida shoira mahorati	11
1.3. Shoira muxammaslari	17
1.4. Uvaysiy naziralari va o'ziga xoslik	29
II bob. Uvaysiy lirikasida kichik janrlar takomili	40
2.1. Uvaysiy ijodida fard janri	40
2.2. Shoira ijodida chistonning o'rni	46
Xulosa	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	61
Ilova. Slaydlar.	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon otin Uvaysiy mumtoz she'riyatning turli janrlarida ijod qilgan va she'rlardan devon tuzgan shoiradir. Shoira she'riyatida inson ma'naviyatining bugungi kunda ham nihoyatda dolzarb bo'lgan, umumbashariy muammolari yoritilgan. U XVIII asr oxiri - XIX asr boshlaridayoq (1780-1845), o'zbek ayolining dunyoqarashi, ma'naviyati, haq-huquqlari, jamiyatda tutgan o'rni, onalik baxti va mashaqqatlari haqida bong urgan.

Bular lirik qahramonning ishqqa munosabatida, olamni falsafiy idrok qilishida, atrof-muhitni badiiy timsollashtirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shoira lirik qahramoni atrofii, insonlarni Sharq ayoliga xos sinchkov nigoh bilan kuzatadi. Ruhiga uyg'oqlik baxsh etuvchi olamning yorug' ranglarini tez ilg'aydi, ba'zan g'ofillik va jaholat belgilarini ko'rib og'rinadi. Mehr-oqibat, halollik, adolat, iymon kabi ezgu fazilatlarni sog'inib iztirob chekadi.

Uvaysiy she'riyatining boshqa ijodkorlar asarlaridan farqli tomonlari ko'p. Jumladan, har bir she'ri chuqur, ichki bir to'fon, tug'yon bilan yo'g'iriladi. Ana shu – botiniy jazba lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalashda noan'anaviy tashbehlar, sharhlar va timsollarni qo'llashga sabab bo'ladi. Shoira she'riyatidagi ulkan qudratga qodir lirik qahramon o'z shijoati bilan olamga g'ulg'ula sola oladi.

Uvaysiy asarlari hamisha insoniyatga ko'mak beruvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ma'naviyat sarchashmalaridir. Ma'naviyat esa – buyuk kelajakning poydevori. Shunday ekan, bizning vazifamiz – Uvaysiy singari ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan ma'naviyatni anglash, uni ruhiyatimizda uyg'otish va ulg'aytirishdir. Bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish tarixi. Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarlarida, ayrim tazkiralarda, hozir Marg'ilonda yashayotgan qarindosh-urug'larining xotiralarida bizgacha yetib kelgan. Uvaysiy yashagan davr adabiy hayoti haqida ma'lumot beruvchi Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shoiron» tazkirasida ham shoira faoliyatiga munosabat bildiriladi. Shoira ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Cho'lpon «Yorqin

turmush» jurnalining 1933 yil 3-sonida «Uvaysiy» maqolasini e’lon qildi. Shoiraning she’rlari «O’zbek adabiyoti xrestomatiyasi», «O’zbek poeziyasi antologiyasi» kitoblarida chop etildi.

Uvaysiy ijodini o’rganish 60-yillarda yangi bosqichga ko’tarildi. Shoiralar asarlari alohida devon holida nashr etildi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, T. Jalolovning «O’zbek shoirlari», A.Qayumovning «Qo’qon adabiy muhiti», E.Ibrohimovanning «Uvaysiy» risolalarini aytish mumkin. So’nggi yillarda yaratilgan I.Haqqulovning «Uvaysiy she’riyati» risolasi ham diqqatga sazovor.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishini yozish jarayonida biz o’z oldimizga quyidagi maqsad va vazifalarni qo’ydik:

- shoiraning lirik merosi xususidagi fikr- mulohazalarni o’rganish;
- Uvaysiy ijodida g’azal janri ‘rni, o’ziga xosliklari va uning mavzu ko’lami masalalarini tahlil qilish;
- muhammas janridagi she’rlarini tahlil qilish orqali shoiraning poetik mahorati xususida xulosalar chiqarish;
- shoiralar fardlarini tahlil qilish, ularning falsafiy jihatlarini o’rganish;
- shoiraning o’zbek adabiyotidagi chiston janrining ustasi sifatidagi mahoratini tadqiq etish;
- shoiraning nazira-g’azallarini tahlil qilish orqali uning o’ziga xos ijod qirralarini yoritish;
- shu asosda Uvaysiyning o’zbek adabiyotidagi janrlar takomiliga qo’shgan hissasi xususida xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, unda Uvaysiyning adabiy merosi, lirikasi va uning o’zbek she’riyatidagi janrlar takomiliga so’shgan hissasini o’rganish masalasi tahlilga tortilgan. G’azal, muxammas, fard, chiston kabi janrlar rivojidadagi shoiralar mahorati masalasi o’rganilgan.

Bitiruv-malakaviy ishidan oliygohlarda “O’zbek adabiyoti tarixi” fanidan o’tkaziladigan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda, litsey, kollej va maktablardagi

adabiyot darslarida foydalanish mumkin. Bu ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ishning tarkibi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishga slaydlar ilova qilingan.

I bob. Uvaysiy va uning lirik merosi

1.1. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat, badiiy adabiyot haqidagi fikrlari

Mamlakatimiz mustaqil bo'lgach, barcha sohalar erkin ravishda bosqichma-bosqich modernizatsiya qilina bordi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov «Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, Shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz»¹, - deb to'g'ri ta'kidlagan edilar. Haqiqatdan ham, mustaqillik bu oliy ne'matdir, uni faqat chin qalbdan anglash zarur.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardanoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, ma'naviyatimizning yorqin sahifalarini ajdodlarimizning salmoqli asarlari tashkil etadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodi yosh avlodning barkamol inson bo'lib kamolga yetishida ulkan ahamiyat kasb etadigan yuksak ma'naviy xazinadir. Buni chuqur anglagan yurtboshimiz tomonidan 199yilni «Alisher Navoiy» yili deb e'lon qilindi. «Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan 199yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi. Bu yil xalqimizning asriy orzu-umidlari amalga oshdi. O'zbekistonimiz davlat mustaqilligini e'lon qildi va o'z taqdirini endi o'zi hal qiladigan bo'lib qoldi».²

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 3-бет.

^{1 1} Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011. 400-bet.

Mustaqillik tantanalaridan so'ng, O'zbekiston Milliy bog'ida Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan shoirga haykal o'rnatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov shoir haykali ochilishi marosimida so'zlagan nutqida «Bugun biz bobomiz ruhi oldida ta'zim bajo keltirar ekanmiz, undan avval va undan keyin o'tgan ulug' zotlarning ruhlari ham shod bo'ladi, deb umid qilamiz. O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq bo'ladi. Ishonamizki, O'zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo'stligi o'rtasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi», - deb to'g'ri e'tirof etgan edilar.¹ Buni Alisher Navoiydek buyuk shoirini e'zozlagan davlatimiz va xalqimizning dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlari tasdiq etib turibdi.

Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida ma'suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish, ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat - o'zlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Davlat rahbarimizning aksariyat asarlarida mazkur masalaga asosiy e'tibor qaratilib, uning asosini tashkil etadigan adabiyotimiz ma'naviyatimizni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etishi ko'p bora ta'kidlanadi. Ana Shu yuksak e'tibor natijasi sifatida respublikamiz mustaqilligining 18 yilligi arafasida nashrdan chiqqan «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» risolasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Risolada «... adabiyot masalasi bu ma'naviyat masalasidir»² deb ta'kidlanadiki, bu xulosa naqadar to'g'ri va haqqoniy e'tirof etilganligini chuqur anglaymiz.

Ma'lumki, biz butun dunyoni global muammolar, inqirozlar qamrab olayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Ana shu muammolarning oldini olish va

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011. 403-bet.

² Каримов И.А. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. -Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 23-бет.

ularni bartaraf etish, Shu asosda O'zbekistonning nurli kelajagini ta'min etish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov «... biz hozirdanoq taraqqiyotimizning inqirozdan keyingi davri haqida chuqur o'ylashimiz, bu borada uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqish haqida bosh qotirishimiz kerak. Bu dastur iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarini egallash uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'zida mujassam etish darkor»¹, - degan edilar. Zero, bu dasturlarni amalga oshirishda yosh avlodning har jihatdan yetuk, bilimdon va ma'naviyati yuksak bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida esa ma'naviyatimizning go'zal namunalari muhim o'rin tutadi.

Ma'naviy barkamollikka erishish insonni doim o'z yo'lidan adashmay borishida asosiy mexanizm vazifasini o'taydi. «Ma'naviyat - insonni ruhan poklash, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»², - deya ma'naviyatga to'g'ri baho bergan edilar prezidentimiz I.A.Karimov.

Ma'naviyat - insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni kuchaytiradi.

Insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 19-бет.

² Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 19-бет.

Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida shunday degan edilar: «... har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»¹. Darhaqiqat, ma'naviy merosimizning g'oyaviy-badiiy jihatdan barkamol namunalari yosh avlodning ong-u shuurini va ma'naviy olamini yuksaltirishda alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi avlodning barkamol insonlar sifatida kamolga etishadi mumtoz adabiyotimizning, xususan, Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Ana boshi yurtboshimiz I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch», «Adabiyotga e'tibor - manaviyatga, kelajakka e'tibor» asarlarida mutafakkir shoirning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yosh avlod tarbiyasidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor beradilar. Xususan, «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida shoir va uning ijodiga juda yuksak baho beradi: «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri bu Alisher Navoiy bobomizdir...

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, mumtoz adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desa mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir»².

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 5-бет.

² Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 47-бет.

bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelishi hech kimga sir emas. Bu bebaho meros xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy quroldir.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Keyingi paytlarda buyuk ajdodlarimizning so'nmas xotirasiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib bormoqda. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy, badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Baku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga muhtasham haykallar o'rnatilgan.

Prezidentimiz xalqimizning asl tabiatida mavjud bo'lgan ana shunday ilmiy-ma'naviy salohiyat va fazilatlarni ta'kidlar ekanlar «Oqqan daryo oqaveradi» degan naqlni tilga oladilar¹. Darhaqiqat, barcha zamonlarda ham ilm-u ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish xalqimizning go'zal fazilati bo'lib qolganligini, yuzlab alloma-yu shoirlarimiz xalqimiz dahosining o'lmas timsoliga aylanganligini ko'ramiz.

Xususan, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rahimbobo Mashrab kabi so'z san'atkorlarining ijodiy merosi yoshlarga ona-Vatanga, xalqqa cheksiz muhabbat, mehr-sahovat, vafo-sadoqat, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Ўзбекистон, 2008. 49-бет

1.2. G'azal janri rivojida shoira mahorati

Shayx Axmad Taroziy she'riy balog'atda qofiya ilmining muhimligini ta'kidlaydi: "...tab'ning natijasi she'rdur. Va she'ning asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin ermas"¹. Ulug' alloma Sharq mumtoz nazmi namunalari asosida ana shunday teran xulosaga keladi. Bu fikrlar she'riyatda qofiyaning o'rni, ahamiyatini belgilashimizda asos bo'ladi. Demak, misralarga badiiy sayqal, ohangdorlik va purma'nolik baxsh etuvchi unsurlardan biri qofiyadir. Uning she'riyatdagi o'rnini o'rganish, baholash borasida adabiyotshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan, muhim tadqiqotlar yaratilgan. Biz mulohaza yuritmoqchi bo'lgan masala bir oz boshqacharoq.

Ahmad Taroziy yuqoridagi asarning "Al-fann-us-soniy fi-l-qofiya va-radif" deb nomlangan II qismida qofiya va radif bilan bog'liq barcha muammolar xususida muhim fikrlar bayon etadi. Ular nazmning ajralmas va sayqalbachsh qismlari ekanligi misollar bilan dalillanadi. Muallif qofiya va radifning zaruriy unsurligini isbotlash bilan bir qatorda bo'lim so'ngida qofiya ishtirok etmaydigan she'r turi ham borligi haqida ma'lumot beradi: "Bir tariqa she'r bo'lurkim, anda qofiya bo'lmas. Har baytning oxirinda radif-o'q keltururlar. Oni harora o'qurlar"².

Mo'tabar lug'atlardan biri "G'iyosul – lug'ot"da "harora" so'zi quyidagicha izohlanadi. "Harora – ba ma'nii raqs kardan va tob dodan dafro az otash; va ovoze, ki az chand sozu chand xalq yak martaba baroyad va g'avg'oi mardum". Ya'ni, "Harora – raqsga tushish va doirani olovda toblash; ko'p cholg'u, ko'p kishilarning baravar birdan chiqargan kuchli ovozi va odamlarning jo'rovoz g'avg'osi ma'nosida". "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "harorat" (harora so'zi bilan o'zakdosh va ma'nodosh) so'zining "ruhiy ko'tarinkilik, jo'shqinlik" ma'nosiga ham egaligi ko'rsatilgan.

Demak, harora she'rlar, istilohning lug'aviy ma'nosidan ham anglashilyaptiki, ruhiy jo'shqinlik, ruhiy g'alayon mahsuli sifatida maydonga

¹ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул балоға.—Т: 1996, 61-бет.

² Ўша асар, 83-бет.

kelgan. “Funun ul balog’a” tadqiqotchisi va noshiri professor A.Hayitmetov she’rning ushbu turiga shoira Uvaysiyning bir g’azalini misol sifatida ko’rsatadi: “O’zbek adabiyotida she’rning harora turiga Uvaysiyning “Ko’ngil dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” radifli g’azali yaxshi misol bo’la oladi”¹.

Prof. A.Qayumov ham shoira she’rlarini tahlil etar ekan, shu she’rga e’tiborini qaratadi: “...Goho iztirob to’lqinlari shunday kuchayib ketadiki, shoira qofiya to’sig’ini bosib o’tib, o’z kechinma va hayajonlarini oq she’r tarzida ifodalaydi (“dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” radifli she’r)”².

“Ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” radifli g’azal 11 baytdan iborat katta hajmli asar. U kuchli ruhiy g’alayon, kuchli iztirob mahsuli sifatida yaratilgan. Asar markazida insonni anglash masalasi turadi. Hayotdagi barcha ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko’ngilni anglamaslik natijasida yuz beradi. Shoira ana shu holatni badiiy talqin etadi.

G’azalning dastlabki baytlarida lirik qahramon yashayotgan muhitga e’tibor qaratiladi: Zamona kulfatshior, charx bemuruvvat, raqiblar adolatsiz, xalq kaltafahm, gulzor – omonat dunyo esa tikanli. Bu jumlar lirik qahramon yashayotgan muhitni fosh etish uchun yetarli. Shunday zahmatlar iskanjasida hayot kechirishga mahkum shaxs(lirik qahramon)ning ko’ngli qorong’u, yorishmaydi. Lola kabi dog’dor.

Shoiraning asosiy fikri – ko’nglining dog’dor ekanligini ifodalash. Dastlab, u nega degan savolga javob beradi. Dilgirlik sababini oshkor etadi. 4-baytdan boshlab lirik qahramon ruhiyati yoritiladi. U – fano mardumi. Uning chuqur falsafiy asrorlari bor. Ammo atrofida ko’nglini anglaguvchilar yo’q. Bu hol lirik qaxramon dilining xufton bo’lishiga sababchi. Dilgirlikka “fano mardumlari” va “qabihguftor mardum” dunyoqarashi o’rtasidagi ziddiyat asos bo’ladi.

Shoir dardmandligiga, iztirobiga bois muhit va shaxs dunyoqarashidagi chuqur ziddiyat. Ruhiy holatning ziddiyati shoira tomonidan tazod san’atini faol qo’llash orqali aniq yoritib berilgan. Fano gulzori xor zaxmi; fano mardumi

¹ Ўша асар, 18-бет.

² А.Қаюмов. Қўқон адабий муҳити –Т: 1961, 247-бет.

qabihguftor mardum; g'uncha gul va hokazo kabi zid timsollar lirik qahramon tabiatini ochib berishda faol xizmat qilgan. Ko'ngil qoni ko'zdan bir lahza to'xtamaydi. Lekin, baribir, lirik qahramon nazdida "bag'ri ichra qon misoli g'uncha". U (gul kabi) ochilmay, ko'nglini dog' ustiga dog' qiladi.

G'azalning olti baytida lirik qahramon ruhiy holati, uni miskin etgan vositai sabablar izohlanadi.

7-baytdan boshlab u o'z shikoyatidan hijolat cheka boshlaydi. Biror noto'g'ri gumonlarga bormaslikni, asosiy xohishi to'lib ketgan yuragini bo'shatishdan iboratligini ta'kidlaydi.

Asarda bosh timsol oshiq. Uning tabiatini yoritish mobaynida shoira ishq kechinmalarini chuqur insoniy munosabatlar, ijtimoiy hodisalar tahlili bilan mutanosib holatda ifodalaydi. Insonning ko'nglini anglash, o'zligini tanish muammolari bilan bog'liqlikda talqin etadi:

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.
Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tohfahm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi¹.

Uvaysiy lirik qahramoni atrof-muhitdan, zamondoshlaridan qanoatlanmaydi. Mazkur g'azalda ko'ngullar to'qnashuvidan, ruhiy ziddiyatlardan tug'ilgan tuyg'ular o'z ifodasini topadi. Shoira dunyoning, jamiyatning g'alayonli, to'fonli munosabatlari manzarasini ta'sirli chizib bera olgan.

Asar ko'ngil jarohati haqida. U kuchli ruhiy g'alayon mahsuli. Uning sababchisi esa zamona kulfati, bemuruvvat charx, kaltafahm va yovuz so'zli kishilardir. Asar bu sitamgarlardan jarohatlangan ko'ngil hayqirig'i bo'lib dunyoga kelgan. Unda qofiya yo'q. Shu sababli radifning ushbu she'rdagi o'zni muhim maqomga ega. U lirik qahramonning butun fig'onu nolasini keng qamrovda o'zida mujassamlashtirgan.

¹ Увайсий шеърятидан. Тузувчи М.Қодирова.—Т: 1980,95-бет.

“Ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” jumlasida radif vazifasida kelgan. U lirik qahramon ruhiy holatining kul minatsiyasini ifodalay olgan. Shu sababli o’quvchi e’tibori ushbu jumlagacha qaratilgan. Lug’atlarda izohlanishicha, “dog” so’zining bir nechta ma’nolari bor. Kuyuk, kuygan joy, qoralik, belgi, iz, qayg’u kabilar shular jumlasidandir. Uvaysiy iste’dodining tabiatidan kelib chiqib, g’azalda ushbu so’zning bir nechta ma’nosini nazarda tutib qo’llaydi. “Dog’ o’ldi” iborasi, birinchidan, lirik qahramon ko’nglidagi zaxmu jarohat izlarini ifodalasa, ikkinchidan, ko’ngilning g’amu anduxda qovurilganligi, dog’langanligi haqida ham xabar beradi.

G’azal maqta’si quyidagi bayt bilan yakunlangan:

Ajab ash’ori mavzun bog’ladi Vaysiy hasaddinkim,
Umarxon zufununkim, ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi¹.

Bayt mazmunidan ko’rinadiki, g’azal nazira sifatida yaratilgan. Biz Amiriy devonini kuzatib, uning “bo’ldi” radifli bir g’azali borligini ko’rdik. U quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Ajab yo’ldur rahi ishqingda ko’p dono zabun bo’ldi,
Junun har kimga tug’yon ayladi, ul zufunun bo’ldi².

E’tibor berilsa, keltirilgan ikkala baytning bir-biriga mutanosib jihatlari bor.

Avvalo, maqta’da shoira she’rning yozilish sababini ko’rsatadi. Umarxon asaridan ta’sirlanib, uning donoligiga havaslanib, chuqur mazmunli she’r – “ash’ori mavzun” bog’laganini tan oladi va e’tirof etadi.

Ikkinchidan, ikkala baytda ham “ajab” va “zufunun” so’zlari uchraydi. Ular orqali shoira asari Umarxon g’azali ta’sirida yaratilganiga ishora borligini sezish qiyin emas.

¹ Увайсий шеърятдан. Тузувчи М.Қодирова. –Т: 1980, 95-бет.

² Амирий. Девон. –Т: 1972, 233 - бет.

Uchinchidan, ikkala g'azal ham hazaji musammani solim (mafoiylun – mafoiylun – mafoiylun; V - - - V - - - V - - - V - - -) vaznida yozilgan. Ushbu o'rinda Uvaysiy Amiriy ijodiga, uning shaxsiyatiga ham “zufunun” so'zi orqali baho beradi.

Biz ikki g'azalni qiyosan o'rganganimizda, Uvaysiy mahoratini yanada yaqqolroq ko'ramiz. Amiriy g'azali 7 baytdan iborat. U ishqiy yo'nalishdagi asar. Unda ishqning kirdikorlari, oshiqning ruhiy g'alayonu holatlari o'z ifodasini topgan. Shoir bir jumla bilan birinchi baytdayoq, bu masalani aksioma, tezis sifatida bayon etadi: Ishq shunday qudratki, u “ko'p donolarni zabun” etadi. Uning yo'ldoshi junun esa ko'plarni donoga aylantiradi. Asar oxirigacha shoir e'tibori dono – zabun – junun zufununlik silsilasini oydinlashtirishga qaratilgan. So'nggi baytda shoir oshiq ko'ngli suratini chizib beradi: Uningcha, ishq dardiga muftalo ko'ngilda chandiqlar, tugunlar shunday rang-barangki, xuddi tovuş kabi sernaqshdir:

Amiriy, tushti xattu holidin ko'nglumg'a savdoe,
Tugunlar ko'ksuna tovuşdek andin fuzun bo'ldi¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'azal hazaj bahrida yozilgan. Zabun, zufunun, nilgun, xun, nigun, tugun, fuzun kabi so'zlar qofiya sifatida qo'llangan. “Bo'ldi” so'zi radif bo'lib kelgan.

Uvaysiy g'azali Amiriy asariga javob tarzida yozilgan. Shoir sof oshiqona yo'nalishdagi asardan ta'sirlanib, mazmun, g'oya, badiiy tasvir usullari qamrovi kengaygan, o'ziga xos yangi asar yaratadi.

Amiriy oshiqning yoqimli, iztirobli dardlarini tasvirlaydi, Uvaysiy esa ishq kechinmalarini chuqur insoniy munosabatlar, ijtimoiy hodisalar tahlili bilan mutanosib holatda ifodalaydi. Inson ko'nglini anglash, tushunish muammolari bilan bog'liqlikda talqin etadi.

¹ Ўша асар, 233 -бет.

Biz mumtoz adabiyotning ko'plab namunalarini kuzatib, ba'zan qofiyasi mukammal bo'lmagan, ba'zan qofiyasiz yozilgan ayrim baytlarga duch keldik. Ammo Uvaysiygacha bo'lgan davrda, qofiyasiz yozilgan tugal asarni uchratmadik. Uvaysiy o'zining kuchli mahorati tufayli she'rning asosiy unsurlaridan biri hisoblangan qofiyasiz ham go'zal asar yaratish mumkinligini isbotladi. U qofiya qo'llamasdan bir maromdagi ohangni – ritmni yarata oldi. O'quvchi e'tiborini muhim fikr-g'oya atrofiga jamlay bildi.

Filologiya fanlari doktori U.To'ychiev Uvaysiyning mazkur g'azalini quyidagicha baholaydi: “Demak bu g'azal (Uvaysiy “Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi...” an'anaviy qofiya nazariyasiga ko'ra erkin yozilgan. Bu hol inqilobgacha bo'lgan davrda “Oq she'r” yozishda birinchi urinishdir”¹.

Ahmad Taroziy fikriga ko'ra, o'zbek adabiyotida ham qadimdan qofiyasiz she'r yaratish an'anasi mavjud. Uvaysiy ana shu unutilayozgan an'anani o'zining noyob iste'dodi va takrorlanmas mahorati tufayli harora she'r misolida qayta jonlantirishga muvassar bo'ldi.

Uvaysiy yetuk shoira sifatida shaklbozlikka, san'atpardoqlikka qarshi edi. U asarlarida mazmun, fikr, g'oya muhim ekanligini e'tirof etgan o'rinlar bor:

Uvaysiy, qofiya tang o'lsa ham mazmuni mahvashdin
Hayolin mahkam et, ayg'ilki: “Ehromingga sallamno!”²

Adabiyotshunoslar fikriga ko'ra, Uvaysiydan keyingi davrda Nihoniy, Usmon Nosir kabi shoirlar ijodida ham bunday she'rning ayrim namunalari uchraydi.

Harora she'rlar keyinchalik, balki, adabiyotda oq she'r erkin she'rlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgandir.

¹ У.Тўйчиев. Оқ шеър. Қаранг: Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. –Т: Фан, 1992, 208-бет.

² Увайсий . Кўнгил гулзори. –Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1983, 166-бет.

Shoiraning mazkur she'rida ayrim so'zlar turli manbalarda turlicha shaklda yozilgan. Shu o'rinda ba'zi mulohazalarimizni bayon etib o'tmoqchimiz. G'azalning 5-bayti quyidagicha:

Ko'ngul qoni bu rohi diydadin bir lahza band o'lmaz,
Vujudim iztirob aylab, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi¹.

1.3. Shoira muxammaslari

Navoiy ijodi tuganmas xazina. Undan bahra olgan ijodkorlar asarlarida teran falsafiylik, chuqur va ko'lamdor g'oyaviylik, so'zlar zamiridagi ma'naviy cheksizlik inkishofini ko'ramiz. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimizni kuzatsak, hazrat Navoiy maktabini o'tamagan ijodkorni topish qiyin. Ular Navoiyning falsafiy mushohada tarzini, mavzu va g'oyalar qamrovini, timsollar tizimini, badiiy mahorat sirlarini o'rganib, unga ergashganlar va ularni yanada takomillashtirganlar.

Jumladan, Uvaysiy merosida ham navoiyvor teran xulosalar, o'tkir hayotiy mushohadalarning takrorlanmas badiiy ifodasini ko'ramiz. Uning ijodida ham Navoiyga monand dardli kechinmalar tasviriga duch kelamiz. Shoira ijodiga xos bunday xususiyatlar, ayniqsa, uning musammat usulida yaratgan asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida musammat ijodkor fikr-g'oyalarini ifodalashda g'azalga nisbatan keng va cheksiz imkoniyatlarga ega. Shu sababli u Uvaysiy adabiy merosida alohida o'rin egallaydi. Uning musallas, murabba', muhammas, musaddas turlarida yozgan asarlari bizga ma'lum.

Ular mavzu jixdtdan rang-barang. Albatta, mumtoz adabiyot an'anasiga ko'ra musammatlardagi yetakchi mavzu ham ishq. Ammo, uning zamirida shoiraning olam, odam, hayot mohiyati haqidagi teran xulosalari, orifona hikmatlari, ijtimoiy falsafalari ham o'z ifodasini topadi. Musammat shoira ichki

¹ Увайсий шеърятдан. Тузувчи М.Қодирова.—Т: 1980, 95-бет.

“men”ini, o’zligini, dunyoqarash va tafakkur tarzini namoyon etish uchun cheksiz maydon vazifasini bajargan. Ularda Uvaysiy asarlaridagi lirik qahramonning ko’p qirrali, teran mulohazali, keng va rangin dunyoqarashga ega tabiati o’quvchini hayratga soladi.

Ma’lumki, ayniqsa, muhammas va musaddas g’azaldan keyin turuvchi faol janrlardandir. Muhammasning 2 turi keng tarqalgan: **1. Mustaqil muhammas** va **2. Taxmis.**

Ikkala tur ham ijodkorning iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga molik. Ammo, ayniqsa, taxmislar, tazmin muhammaslar yaratish shoirlar o’rtasidagi ijodiy hamkorlik va munosabatlarning kengayishiga, badiiy mahorat sohasidagi tajribalarni o’rganishga, ommalashtirishga... ta’sir ko’rsatgan”¹.

Uvaysiy ijodida adabiy an’ana va novatorlik masalasini shoironing muhammaslari talqinisiz yoritish amri mahol. Chunki “tazmin musammatchilik shoirning adabiy an’analarga munosabati va ixtirochilikka intilishining mezoniga aylanadi”².

Uvaysiyning Sharqshunoslik institutida saqlanuvchi 1837 inventar raqamli devoniga muhammaslar kiritilgan. U mustaqil muhammaslar bilan birga, Navoiy, Amiriy, Jomiy, Fuzuliy kabi alloma shoirlar g’azallariga taxmislar ham yaratgan.

Uvaysiy taxmislaridan biri Navoiyning “Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod, Bulbul kibi hajringda ishim nolau faryod”³ bayti bilan boshlanuvchi g’azaliga bog’langan. Navoiy g’azali 8 baytdan iborat. Unda ikki xarakter – oshiq va maxbuba timsoli mavjud. U “orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod”dek go’zal mahbubaga oshiq tilidan murojaat bilan boshlanadi. Baytdan baytga o’tgan sari timsollar tabiatidagi ziddiyat mubolag’ali tarzda kuchayib boraveradi. Bu to’qnashuvdan paydo bo’lgan iztirob chaqinini tasvirlashda, shoir misralar o’rtasida parallelizm usulidan foydalapadi. Paralelizm oshiq va mahbuba tabiatini yoritishda shoirga nihoyatda qo’l keladi. U mahbubaning har bir qilmishiga hayotiy misollarni, hodisalarni parallel qo’llaydi. Bu esa timsollar tushgan

¹ Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамма–Т –Т: Фан, 1976, 105-бет.

² Ўша асар, 104-бет.

³ Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. 1-жилд, Фаройиб ус-сиғар. –Т: 1989, 136-бет.

holatning sababini aniqlashtirishga, dalillashga xizmat qiladi. Bu usul orqali kitobxon tasavvurida oshiq va mahbubaning haqiqiy va aniq qiyofasi chizib beriladi. Asarda oshiq va mahbuba maqomi gul va bulbul munosabatiga muqoyasalanadi. Mumtoz adabiyotda ijobiy ma'noda qo'llanuvchi mazkur timsollar Navoiy tafakkuri sarhadlarida yangicha mazmun kasb etadi. Ular ishq zamiridagi iztirob talqiniga xizmat qildiriladi:

Gul yafrog'i tirnog'lar erur bu chaman ichra,
Bulbul paru bolini yulub bergali barbod¹.

Navoiy g'azalini tuzilishiga ko'ra, ma'lum ma'noda, parokanda g'azal deyishimiz mumkin. Chunki uning baytlaridagi fikrlar oshiq va mahbuba holatini turli nuqtai nazarlar bilan, turli tomondan izohlaydi. Ammo asarni to'liq mutolaa etganda, yaxlit ruhiy manzara borasida tasavvur xosil bo'ladi.

Uvaysiyni mazkur g'azalga taxmis bog'lashga rag'batlantirgan ma'lum sabablar bor, albatta. Bizningcha, avvalambor, g'azaldagi topqirlik bilan qo'llang'an timsollardan, noyob badiiy tasvir vositalaridan navoiyvor o'ziga xos uslubda foydalanish tamoyillari shoira e'tiborini tortgan bo'lsa, ikkinchidan, asar kompozitsiyasidagi ma'lum darajadagi parokandalik shoiraga asarni yanada kengaytirish, ruhiy holag tasvirini yanada aniqlashtirish fikriga kelishga asos bergan bo'lishi mumkin. Albatta, shoira taxmisidagi fikrlarning mantiqiy uzviylashuvi, timsollar tabiati va qiyofasining yanada teran talqin etilganligi bunday xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Taxmisda Uvaysiyning mahorati 1-banddayoq yaqqol ko'rinadi. Navoiy g'azalidagi 1-bayt go'zal ashyolarga qiyoslangan mahbuba jamoli va bulbul kabi nolayu faryod chekayotgan oshiq kayfiyati bayoni bilan boshlangan. Uvaysiy mazkur baytga uch misra qo'shadi. Ana shu misralar o'quvchi tasavvurida oshiq murojaat etayotgan yor timsoli qiyofasini ancha oydinlashtiradi. Dastlabki misrada, asosan, yorning go'zallik chizgilari ifodalangan bo'lsa, qo'shimcha misralarda endi

¹ Ўша асар, 85 -бет.

oshiqnig ruhiy holati, kayfiyati ham mukammal ifodasini topadi. Yorga qarata sultonlik, hokimlik sifatlari qo'llaniladi. Bu esa yor timsoli mohiyatini kengaytiradi. Uni faqat ma'shuqa ma'nosida emas, balki bevosita Ollohga murojaat ma'nosida ham tushunishga izn beradi:

Men xastau zoringni biror aylamading yod,
Sulton senu hokim senu bas men kima dey dod,
Umrinni kamolini g'aming ayladi barbod,
Ey orazi – nasrin, sochi – sunbul, qadi – shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nolau faryod”¹.

Mazkur muhammas 8 band, 40 misradan iborat. Banddan bandga o'tgan sari oshiq ruhiy holati tasvirining qamrovi kengayib boraveradi. Navoiy g'azali husni ta'lil san'ati asosida yaratilgan. Har baytning 2-misrasi shoir fikrini asoslovchi jumla. 1-misra esa, asoslanuvchi fikr. Uvaysiy asoslovchi misradagi ma'noni yanada kuchaytirib berishga e'tiborini qaratadi. U qo'shgan 3 misra har bir banddagi maqsadni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Buni amalga oshirishda shoir fikriy tazoddan o'rinli foydalanadi:

Muhtoj erurmen tunu kun ahli safog'a,
Shoyad yadi pokin ko'tarur bo'lsa duog'a,
Rahm etmadi men bulbuli sho'rida navog'a,
“Ashkimni ko'rub tez bo'lur mayli jafog'a,
Ope itimas chunki suve bo'lmasa fo'lod”².

Mazkur banddagi Uvaysiy misralarida oshiqning “axli safog'a” muhtojligi, yorning mehr-muruvvat tilab duoga qo'l ko'tarishiga ilinji ifodalanadi. Oshiq tabiatidagi umidvorlik tasvirlanadi. Ammo, natija kutilgandek emas. Oshiq ko'z

¹ Увайсий шеърятдан. Тузувчи М.Қодирова. –Т: 1980, 104-бет.

² Ўша асар. 104-бет.

yoshini ko'rgan mahbuba yanada jafokorligini kuchaytiradi. Buning sababini izohlash uchun chiroyli asos keltiriladi. Ya'ni, suv berilmaguncha po'lat o'tkirlashmaydi. Ko'z yoshini ko'rgan mahbuba ishq otashini – jafosini yanada alangalatadi. Bu hol shunga o'xshatiladiki, pichoq yasalayotganda, u suvga botirib turilsa, yanada o'tkirlashadi. Oshiqning ko'z yosh to'kishi mahbuba zulmiga asos bo'ldi. Ko'rinadiki, shoira qo'shgan misralar asoslanuvchi fikr mohiyatini oydinlashtirishga, ularning o'quvchi tasavvurida yanada aniqlashtirib berilishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida Navoiy fikrlarining takomillashuvi, teranlashuviga asos bo'ladi.

Navbatdagi badda oshiq ruhiy holatini ifodalashda Navoiy birgina Farhod timsolidan foydalangan. Uvaysiy esa uni yoritishda Layli va Majnun timsollarini ham eslaydi. Bu asardagi ruhiy tug'yonning yanada kuchliroq pardaga ko'tarilishiga, oshiq dardining aniqroq tasvirlanishiga asos beradi.

Topdi bu ko'ngul zarrav Layli xabaridin,
Qon bo'ldi yurokim mani Majnun hunaridin,
Farhod qutuldi o'lubon dardi saridin,
Mingdin bir emas ul yurokim zaxmlaridin,
Har nechaki tog' bag'rini zaxm ayladi Farhod¹.

Shoira she'riyati ishq, oshiq va ma'shuqa tabiati talqini jihatidan yuksak pardalarda turadi. Uvaysiyning mahorati, ayniqsa, so'nggi badda yaqqol namoyon bo'ladi. Bandma-band ko'tarilib borayotgan ruhiy tug'yon bu yerda eng yuqori nuqtaga yetadi. Navoiy baytiga shoira tomonidan bog'langan misralardagi lirik qahramon misolida biz endi tabiatan latofatli, tuyg'ulari nozik ayolga emas, balki shiddatli, mardona oshiq timsoliga duch kelamiz:

Kim jur'ayi may ichmasa, mastonalig' etsa,
Bir chug'zdek obod aro vayronalig' etsa,

¹ Ўша асар. 105-бет.

Vays egri qo'yub bo'rkini mardonlig' etsa,
Ne ayb Navoiy kibi devonalig' etsa,
Har odamening yori agar bo'lsa parizod¹.

Mazkur bandda may, ko'ngil, oshiq va yor timsollari bor. Ularning barchasi bir-biri bilan aloqador. Yor bosh sabab. Uning parizod kabi go'zalligi oshiq ko'nglida ishqni alangalatgan. U bir qultum may ichmagan, ammo ishq sharobidan sarxush. Ushbu o'rinda ishq may ramzi vositasida talqin etilgan. U oshiqni behudlik maqomiga ko'taradi. Ishq to'foni ta'sirida ko'ngilni ixtiyorsiz vayron etadi. Ishq tafti natijasida jur'atli, devonavor, mardona oshiqqa aylanadi.

So'nggi bandda lirik qahramon tabiatidagi to'fon noyob talqinda yuzaga chiqqan. Shoir qo'shgan har bir misrada ishqning vayronkorona qilmishi nihoyatda aniq tasvirlab berilgan. Qo'llangan har bir so'z zamiridagi shiddat o'z jarangini namoyon eta olgan. Misrama-misra tasavvurimizda shiddatkor, behud, majnunvash oshiq timsoli gavdalanib boraveradi. Shoir va Navoiy misralari shakl, mantiq va ruhiy tug'yon nuqtai nazaridan yaxlitlikka erishadi. Bu Uvaysiy mahoratining, shu o'rinda, navoiyvori maqomga ko'tarila olganini ko'rsatadi.

Shoir lirik qahramoni xarakteri, ayniqsa, ustozining "o'tru" radifli g'azaliga bog'lagan muhammasida kamolot bosqichiga ko'tariladi. G'azal boshdan oxirigacha tazod – qarshilantirish san'ati asosida yaratilgan. Shoir bu san'atni o'z taxmisida ham saqlab qolishga erishgan. Ushbu san'at lirik qahramon ruhiy tovlanishlarini, ruhiy ziddiyatlarini ifodalashda qo'l kelgan. Olamning taraqqiyoti qarama-qarshiliklar kurashi qonuniga bog'liq. Inson ruhiy ziddiyatlarini – foniylilik va boqiylik kurashini yengib o'ta olsagina haqiqatni tushunadi. Haqqa yetishadi:

Qo'ysa kim ishqqa qadam, vahki gado bo'lg'usi shoh,
Sham' bo'lsa agar ul bo'lg'ay ikki olama moh,
Ochilur faqru fanodinki, Xudo sorig'a roh,

¹ Ўша асап, 105-бет.

“Ul quyosh hajrida otsang kechalar novaki oh,
Holadek charx tutar daf’ig’a qalqon o’tru ”¹.

Shoira ushbu badda ishq va oshiqlik haqidagi o’z qarashlarini ravshan ifoda etadi. Oshiq va gado. Oshiqning maqsad manzili bitta. U visol talab etadi. Shoh va gado . Shohning maqsadi olamda bisyor. U mol-davlat, yurt, dunyo g’amida qayg’uradi. Ammo ishq yo’liga qadam qo’yib oshiqqa aylanishi bilan u bisyorlikni – juzvni unutadi. Intilishi yagonalikka – kullga yo’naladi. Shoh va gado – ikki qarama-qarshi qutb. Ammo, ularni ishq yo’li birlashtiradi. Orasidagi farqni, ziddiyatni yo’qotadi.

“... Ochilur faqru fanodinki, Xudo sorig’a roh”. Xo’sh, diydoriga yetkazuvchi faqirlik nima? “Faqr” so’zining lug’aviy ma’nosi kambag’allik. Falsafiy ma’nosi-chi? Faqr faqat yo’qsillik ma’nosini ifodalamaydi, u moddiy ehtiyojsizlikni, botiniy hurlikni, axloqiy kamolotni ham anglatadi. Demak, shoira “faqru fano Xudo sorig’a yo’l ochar” deganda xuddi ana shu axloqiy kamolot ko’shkiga ko’tarilgan, Olloxdan o’zga barcha moddiylikka ehtiyojsiz komil inson yo’lini nazarda tutgan.

Uvaysiy Navoiyning yana bir “G’araz” radifli g’azaliga ham taxmis bog’lagan. G’azal falsafiy – orifona yo’nalishda. Olti baytdan iborat. Unda shoir ishq, oshiq va mahbuba bilan aloqador ayrim timsollar mohiyatini sharhlash yo’lidan boradi. Jumladan, quyosh vasfi – oy yuz madhi, obi hayvon – shakarlab, jannat suvida quyosh jilvasi – ko’zgu ichidagi chehra aksi, Farhod tog’i va teshasining zaxmi – dardu mashaqqatdan ezilgan jism, umr vafosizligi jafokor sho’x.

Parallel keltirilgan narsa va hodisalar inson umrining mohiyatini, yashash tarzini va sababini tashkil etadi. Demak, bu qisqa misralarda Navoiy odam va odamning yaratilish sababi va yashashdan maqsadi mohiyatini yoritishni niyat qilgan. Bu g’azaldagi talqin shoir lirikasidagi timsollar mohiyatini anglashimizda sharh, ochqich vazifasini bajaradi, deb o’ylaymiz.

¹ Увайсий. Кўнгул гулзори.–Т, 257-бет.

Uvaysiy va Navoiy lirik qahramonining dunyoni anglashida mutanosiblik, yaqinlik bor. Shu sababdan, Uvaysiy ustozining mazkur g'azaliga taxmis bog'laydi. Shoir qo'shgan misralar natijasida mazkur asar shakl va mazmun jihatdan yanada mukammallashadi:

G'unchani yod aylamakda, yor, gulzoring g'araz,
To'tidin dam urmakim lazzati guftoring g'araz,
Kim qaribi ul harimidur sazovoring g'araz,
Ey quyosh vasfin demakdin mohi ruxsoring g'araz,
Obi hayvon zikridin la'li shakarboring g'araz.

Ayniqsa, so'nggi ikki band shoirlar dunyoqarashini, ijodiy va hayotiy maqsadlari mohiyatini yoritishda nihoyatda muhim. Barcha bandlarda ishq va oshiqning qilmishi va holati bayon etilgan. Demak, inson, ma'lum darajada, ruhiyatida azaliy ishq bilan tug'ilar ekan. Ana shu ishq uning ba'zan masrurligiga, ba'zan esa iztirobiga sabab bo'lar ekan. Ishq har kimda har xil darajada bo'ladi. Biz mazkur asar vositasida Navoiy bilan birg'a Uvaysiy ijodidagi ishq va timsollar mohiyati borasida ham xulosa chiqarish imkoniga ega bo'lamiz. Chunki Uvaysiy bog'lagan misralar Navoiy g'oyalarini to'lg'azishi bilan birga, shoir lirik qahramonining ishqdagi darajayu maqomini belgilash imkonini ham beradi:

Necha mendek charxning ostida afgor etmaging,
Necha mendek Mansuri Xalloyni dor etmaging,
Ishk savdosi bila rasvoi bozor etmaging,
Ul quyoshqa, ey falak, men zarrani zor etmaging,
Zarrai maqsud yo'q juz bizga ozoring g'araz.

Mazkur misralarda oshiq o'zini zarra, ma'shuqani quyoshga mengzaydi. Mazkur timsollar Navoiy fikrlari ramziy ma'no kasb etishini ko'rsatadi. Unda ilohiy tajalli falsafasi nazarda tutilgan. Buni yaxshi anglagan Uvaysiy qo'shimcha

misrada “Anal Hakdik” g’oyasining asoschisi Mansur Xalloy timsolini yodga oladi. Eng muhimi o’zini oshiq sifatida Mansur Halloyga tenglashtiradi. Bu aniqlashtiruv mazkur banddagi Navoiy maqsadini yanada mukammallashtiradi va o’quvchi tafakkuridagi anglamni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Falsafada sabab va oqibat tushunchasi bor. Oqibatni biz maqsad deb anglasak, so’nggi misrada maqsadga yetish yo’qligi, balki sababning o’zi oqibat, ya’ni maqsadligi bayon etiladi. Bunda biz vahdati vujud, tajalli, Anal Haq tushunchalarining mohiyati ifodasini ko’ramiz. Uvaysiy va Navoiy ijodining falsafiy asosi bitta, ya’ni naqshbandiylik tariqati. Shu bois shoiraning olam, borliq, hayot mohiyati haqidagi mulohazalari ustoz tasavvuriga yaqin va monand.

Uvaysiy taxmisda Navoiy fikr, g’oyalarini takomillashtirar ekan, so’z va timsol qo’llash, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratiga alohida e’tibor qaratadi. Asardagi tug’yonli tuyg’ular ifodasi to’lqinli ritm vositasida tasvirlanadi. Dastlabki misralarda ishq va oshiqlik sabablari sokin bir ritmda bayon etib boshlansa, ma’lum bandlarga borib, to’lqin eng yuqori g’alayonli cho’qqiga chiqadi. So’nggi bandga borib tuyg’ular ritmi yana sokinlashadi. Dilga lirik qahramon tomonidan charxdan shikoyat noo’rinligi, balki azaldan ishq elining haloki uchun qotil ko’z yaratilgani tushuntiriladi. Umrning vafosizligi, o’tkinchiligiga sababchi ham sho’x, jafokor dilbar ekanligi ta’kidlanadi. Shu o’rinda Navoiy fikrlari bidan Uvaysiy fikrlari ma’noviy va shakliy zanjir hosil etganini ko’ramiz. Jumladan, Navoiy umr o’tkinchiligi haqida so’zlar ekan, Uvaysiy “...xazon yafrog’idek Vaysiy yuzi” degan jumlaning qo’llaydi. Shu birgina tashbeh ikki shoir fikriy zanjirini yaratadi. Chunki yaproq umrini yashab bo’lganda xazonga aylanadi. Xazon – umr so’ngi ramzi. Unda umr yaproq hayoti kabi qisqaligi g’oyasi Uvaysiy mahorati tufayli singdiriladi. So’nggi bandda oshiq dil sokinlashadi. Ammo, bu tushkunlik belgisi emas, balki falsafiylik, donishmandlik bilan muzayyan sokinlik. Xazon timsoli vositasida asarga kuz faslidagi donishmandlik va falsafiylik kirib keladi. Bu esa o’quvchini qisqa umrning g’animatligini anglashga, uni muhabbat va donolik bilan yashab o’tishga rag’batlantiradi.

Uvaysiy Navoiyning turli – oshiqona, falsafiy – orifona va pandnoma yoʻnalishdagi gʻazallariga taxmis bogʻlagan. Quyidagi asar pandnoma yoʻnalishidagi gʻazalga bogʻlangan taxmis. Navoiyning mazkur “Hayf” radifli gʻazali 8 baytdan iborat. Quyidagi baytdan u shoirning umri soʻngida yozilgan asari degan xulosaga kelishimiz mumkin:

Kechti umrim naqdi gʻaflat birla nodonligʻda hayf,
Qolgʻoni sarf oʻldi anduhu pushaymonligʻda hayf.

Uvaysiy taxmisidagi lirik qahramon ruhiy holatidan kelib chiqib, shoir ham mazkur taxmisni qarilik davrida yaratgan degan xulosaga kelish mumkin. Navoiy gʻazalining birinchi baytiga bogʻlangan qoʻshimcha misralarda bu hol aniq koʻrinadi:

Yigʻlamay koʻz abri doim oʻtti xandonligʻda hayf,
Hech boʻlmas odameni umri giryonligʻda hayf,
Sud yoʻq soʻz birla ketti jon soʻzonligʻda hayf...

Maʼlumki, Navoiy ham, Uvaysiy ham mazmunli umr kechirishgan. Ammo umr soʻngida ikkala shoir ham oʻz xatoliklaridan pushaymonlik izhor etishadi. Buni, albatta, ularning ijodkor shaxs sifatida yashashdan maqsad, umr mazmuniga boʻlgan yuksak talablari natijasi sifatida qabul qilishimiz lozim.

Asar goʻyo ikkala shoir umrlarining sarhisobidek tasavvur uygʻotadi. Ammo chuqurroq nazar tashlasak, unda umumbashariy talab va istak mujassamligini koʻramiz:

Xoʻblar mazmunidin kelgay qulogʻimga nido,
Faqrdin yuz oʻrsa ul kibr sari vovaylato,
Dedilar qutbi zamonlar ushbu soʻzni moado,

Yaxshiroqdurkim hisob o'lg'onda sultondin gado,
Hayfkim, bo'lg'ay gado avqoti sultonlig'da hayf.

Mazkur band mazmuni tazod san'ati vositasida chuqur, umumbashariy mohiyat kasb etadi. Navoiy sulton va gado timsollarini zidlantirgan bo'lsa, Uvaysiy faqr va kibr tushunchalarini qarshilantiradi. Sultonlik va kibr insonni dunyoga yaqinlashtiradi. Faqirlik va gado esa, aksincha, uzoqlashtiradi. Dunyoga hirs qo'yish ilohiylikdan yiroqlashish demakdir. Shunday ekan, ikkala shoir ham o'zlari anglagan haqiqatlar orqali zamondoshlarini shunday qusurlardan qutulishga, kamolotga intilishga da'vat etishgan. Bunday dono fikr–qarashlar insonlarni o'z umr yo'llariga hushyor boqishga rag'batlantiradi. Xokisorlik va faqirlik kabi ilohiy fazilatlarni fe'llarida shakllantirishga g'ayratlantiradi.

Ma'lumki, Uvaysiy shoira sifatida barcha hayotiy masalalarni o'z asarlarida ishq vositasida talqin etgan. Quyidagi bandda u xuddi shunga e'tibor qaratadi. Ammo, asarning umumiy ruhidan kelib chiqib, o'z fikrlarini Navoiy misralari bilan shunday mohirona bog'laydiki, asar bir shoir qalamidan chiqqandek yaxlitlik va ravonlik kasb etadi:

Ey sanam, ishqing tanu jonim aro pinhon erur,
Ul sababdur menda har obod bor vayron erur,
Jonim ul abro' hilolin sadqasi, qurbon erur,
Har na aytgan so'zlarim chindur desam, yolg'on erur,
Chin budurkim: degamen umr o'tti yolg'onlig'da hayf.

Nazarimizda, aynan mazkur bandda ham Uvaysiyning so'z qo'llash mahorati namoyon bo'ladi. **“Ey sanam, ishqing tanu jonim aro pinhon erur, Ul sababdur menda har obod bor vayron erur”** jumlasida so'zlarning to'g'ri va aniq tanlanishi lirik qahramon ruhiy holatini chuqur talqin etilishiga sabab bo'lgan. Shoira ishq po'rtanalarining g'alayonli to'lqinlari qilmishini noyob tasvirlab bera olgan.

Biz yuqorida fikr yuritgan ayrim namunalardan ko'rinadiki, Uvaysiy Navoiy ijodiga chuqur ehtirom bilan yondashgan. Uning asarlarida o'z tuyg'ulariga monandlikni his etgan. Olam va odamga, hayot va yashash mazmuniga munosabatda yaqinlikni sezgan. Shu sababli ham ustoz asarlariga ko'plab nazira va taxmislar bog'lagan. Ularning barchasi chuqur mazmunli, falsafiy asarlardir.

Shoira bunday asarlarda Navoiy g'oyalarini yanada takomillashtiradi. U qo'llagan timsollar tizimini, badiiy tasvir vositalarini boyitadi. Ularning o'ziga xos, yangi qirralarini kashf etadi.

Dunyoqarash, tuyg'ular, timsollar va badiiy tasvir vositalaridagi muzayyanlik taxmislarining ravonlik va yaxlitlik kasb etishiga bois bo'lgan. Ularni mukammal, yangi asarlar maqomiga ko'targan.

Ma'lumki, Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi birinchi g'azal, -

Ashraquat min aksi shamsil – ka'si anvor – ul xudo,
Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqdi sado...,

deb boshlanadi. Shoira ijodida ushbu asarning bevosita ta'sirini kuzatamiz. Uvaysiyning bir qancha g'azallarida soqiyga murojaat, may va unda yor aksini ko'rishga ishtiyoq tuyg'ulari ifodalanadi. Bu shoiraning dunyoni anglashda va falsafiy mushohada tarzida navoiyvor yo'lda turganini ko'rsatadi:

Soqiyo, berki vasl alida okom mengo,
Sog'aringda ko'rinur chehrayi gulfom mengo.

Uvaysiy she'riyatida may, mayxona, sharob, jom kabi timsollar keng qo'llanilgan. Ular asosan, ramziy ma'nolarda ishlatilgan.

Mening mahbubim, ey dilbar, o'shal nom ichra yostanmish,
Tafakkur qilmag'il, mazmuni payg'om ichra yostanmish.

Nechukkim, orzu qilmay qo'lingdin jur'a ichmakni,
Mayi vahdat sening ilgingdagi jom ichra yostanmish.

Ushbu g'azaldagi may – ilohiy ishq timsoli. Mayi vaxdat – Olloh bilan birlashish ishq. Jom – bu dunyo, borliq, jahon ramzi. Demak, shoira ilohiy birlikka ushbu – foniy dunyoni kechib o'tish, uning yaxshi-yomoniga qanoat qilish orqali erishish mumkin, deb biladi. Ko'rinib turibdiki, Uvaysiy ustoz g'oyalarini o'z ijodiy yo'li, falsafiy yo'nalishi, turmush tarzini belgilashda dasturulamal deb qabul qilgan.

Navoiy ijodi – ma'naviyat xazinas. Uni o'qigan o'quvchining ko'ngli poklanib, ezguliklarga to'lib boraveradi. U bizni duyoning asl mohiyati bilan oshno etadi. Natijada, qo'ngil ko'zlarimiz ravshanlashib, ulug' ustoz ilg'agan kengliklarni ko'ra boshlaymiz. Bugungi hayotimizda xalqimiz ma'naviyatini ulg'aytirish bosh muammo bo'lib turgan ekan, bu ishda Navoiy va uning izdoshlari merosi, shubhasiz, bosh va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

1.4. Uvaysiy naziralari va o'ziga xoslik

Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonida **“Bog’ aro go’yo sabo solmish edi jonon isi Kim, yetishgach gul isi, men toptim andin jon isi”** matla’si bilan boshlanuvchi bir g’azal bor. Uning mazmun, mohiyati ilohiy tajalli falsafasi bilan chambarchas bog’liq. Zero, shoir tabiatning har bir ashyosidan chuqur mohiyat kashf etadi. Ularda ilohiy mo’jiza inkishofini ko’radi. O’zbek adabiyoti tarixida mazkur g’azalga ko’p ijodkorlar nazira bog’lashgan. Bu, ayniqsa, Qo’qon adabiy muhitida o’ziga xos an’anaga aylangan. “Unga Zokirjon Furkat nazira, Rojiy va Nodim muhammas, Nodim yana, o’z navbatida, Rojiyning tazminli muhammasiga musamman yozgan edi”¹. Undan tashqari, Uvaysiy va Amiriylar ham unga o’ziga xos nazira yaratishgan.

¹ Р.Орзибеков Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамма–Т –Т: Фан, 1976, 86-бет.

Bizga ma'lumki, Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkisasi, ma'lum ma'noda, naziralar jamlamasidir. Tazkiraning yaratilish tamoyilidan kelib chiqib, undan mazkur g'azalga bog'langan ko'plab naziralar ham o'rin olgan. Jumladan, Amiriyning "Isi" radifli g'azali ham kiritilgan.

U Alisher Navoiy g'azalidan ta'sirlanib yaratilgan. Mazkur g'azal 9 baytdan iborat. Navoiy g'azali bilan hajm jihatidan teng. Ikkala asar ham ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilon) vaznida yaratilgan. Mazmun jihatidan ham bir-biriga yaqin. Amiriy asarida Navoiy qo'llagan qofiyalarning bittasi (1-baytdagi "jon" so'zi) ishlatilgan. Ikkala asarda ham birinchi bayt mazkur qofiya bilan ziynatlangan. Bir xil "isi" radifi qo'llangan. Asarlar oshiqona yo'nalishda. Ularda yor va oshiqning vasl holati tasvirlangan. Ammo, ikkala shoir asarida ushbu tasvir o'ziga xos va yangicha ifoda tizimi bilan yoritib berilgan.

Jumladan, Navoiy g'azali ham vasl yo'li haqida. Bu yo'lni shoir tabiat bilan bog'likdikda ochib beradi. Bog', sabo, gul, rayhon, g'uncha kabi timsollarni qo'llab, ular vositasida jonon va jon, yuz va xat, og'iz va durdek tishlar, la'l hamda qora hol bilan bog'liq ramziy mohiyatlarni yoritib berishga harakat qiladi. Dastlabki baytda gul va jonon timsollarini muqoyasa etadi. Lirik qahramon gul ramzida jonon isini topadi. Ammo, u 2-baytdayoq, bu fikridan qaytadi. Ko'ngulni ehtiyot bo'lishga da'vat etib, gulning qizilligida qotillik alomatini ko'radi. Buning sababini esa shoir keyingi baytda oshkor etadi. U yor yuzini ko'rib, Haqiqiy vaslga erishdi. Endi unga gulu rayhon kerak emas. Chunki lirik qaxramon nazdida ular, uni asl maqsaddan chalg'ituvchi ashyolarga aylanadi:

Yuzu xattining nasimidan chu toptim toza jon,
Vah, ne jonimg'a kerak emdi gulu rayhon isi¹.

Oshiq ko'ngli zaxmli – yaralangan. Nima bilan yaralangan? Albatta, ishq paykoni bilan. Oshiq uchun esa ishqdan yoqimli holat yo'q. Shu sababli, lirik

¹ Навоий. МАТ.5-ТОМ, Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васа-Т –Т: Фан, 1990, 446-бет.

qaxramonga g'unchaning yoqimli atridan ko'ra ham, ko'ngliga sanchilgan, hatto qadimiyligi va davomiyligidan zanglab ketgan paykon hidi qadrdonroq:

G'uncha atrin xushlamasmen menki, ko'nglum bog'ida
Dark etarga o'rganibmen zanglig' paykon isi.

Buning sababi aniq, chunki faqat ishqqina oshiqni asl maqsadiga yetkazuvchi, vaslga muyassar eltuvchi buyuk va sirli vosita.

Keyingi baytda holi savdo – qora hol haqida fikr yuritiladi:

Holi savdosin, dema, ko'nglung nega fosh ayladi
Kim, yoshurg'on birla bo'lmas mushkning pinhon isi.

Baytda hol mushkka qiyoslanadi. Mushkni qancha yashirsang– da, hidi oshkor etadi. Tasavvuf lug'atlarida qora hol g'ayb olami ramzi sifatida izohlanadi¹. Shundan kelib chiqib, shoir uni mushk bilan muqoyasa etadi. Chunki uni ko'z bilan ko'rmasangda, muattar bo'yi sexri bilan seni o'ziga jalb etadi. Xuddi shuningdek, ko'nglingda mujassamlashgan g'ayb asrorini ham sening ruhiy holating oshkor etib qo'yadi. Keyingi baytda shoir boda timsolini qo'llaydi. U ham ramziy ma'no kasb etadi. Bodani ko'p istifoda etganda, kishi mast bo'lib yiqiladi. O'zini unutadi. Shoir shu holatdan ishq maqomining yuqori darajasidagi ruhiy holatni ifodalash maqsadida foydalanadi.

G'azalning maqta'si umumlashtiruvchi, ya'ni barcha aytilgan fikrlarga yasalgan xulosa vazifasini bajaradi. Ma'lum ma'noda, matla'dagi fikrga qaytish, uni eslatish maqomida turadi. Asarda shaklan raddul – matla' san'ati qo'llanmagan. Ammo shu san'at vazifasini shoir o'zgacha so'zlar va obrazlar keltirish orqali amalga oshirgan:

Guldin ul gulrux isin topqach Navoiy ochti ko'z,

¹ Доктор Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбириоти ирфоний. Техрон, 1279, 237-бет.

O'ylakim, Ya'qub ko'nglakdin mahi Kan'on isi.

Ayniqsa, mazkur so'nggi baytda, Navoiyning g'azaldan ko'zlagan muddaosi to'la yuzaga chiqadi. Shoir talmeh san'ati vositasida Yusuf qissasiga ishora qiladi: Yusufning ko'ylagini hidlagan otasi – Ya'qubning ko'zi ochilganidek, ya'ni hodisaning mohiyatiga yetganidek, Gulda gul yuzli go'zallikning ramzini ko'rgan lirik qahramonning ham ko'zi ochiladi. Ya'ni asl mohiyat nimada ekanligini anglaydi.

Gulrux mahbuba vasliga yetishda oshiq uchun gul vosita vazifasini bajaryapti. Oshiq o'zini unutgan edi. Gul ramzi orqali vaslga erishib, ko'zi ochildi. Ya'ni asl mohiyatni angladi. Uning asosiy maqsadi ham xuddi shu edi.

Navoiyning mazkur g'azaliga Rojiiy Marg'iloniy ham nazira–muhammas yozgan. Uni tadqiq etgan adabiyotshunos olim R.Orzibekov shunday mulohaza bildiradi: “Rojiiy Marg'iloniyning mazkur g'azalga hazaj bahrining hazaji musamman shahobchasida yozgan muhammasidan bir bandi quyidagicha:

Elga bargi aysh ekan har bir guli bo'ston isi,
Iskadim men g'am samumi birla go'yo qon isi
Topmadim gulshan nasimidin magar hirmon isi,
“Gar bahor el topsa bo'stondin gulu rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin menga hijron isi ”.

Tazminli nazira muhammasning birinchi bandi bo'lgan bu parchada qo'shtirnoq orasidagi so'nggi 4- va 5-misralar Alisher Navoiyning shu radifli g'azalining matla'i bo'lib, uning ustidagi uch misra Rojiyning o'z tab'idandir”¹.

Ammo, shu o'rinda, bir masalaga oydinlik kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Risola muallifi muhammasdagi 4- va 5-misralar Navoiy g'azalining matla'si deya ma'lumot beryapti. Lekin Navoiyning g'azalida bunday bayt uchramaydi. Qo'qon adabiy muhitida mazkur g'azalga nazira yozgan Amiriy, Uveysiy, Furqat kabi

¹ Ўша асар, 85-бет.

ijodkorlar asarlarida ham bunday bayt keltirilmagan. Demak, Rojiyning mazkur tazminli muhammasi to'la ravishda shoirning mustaqil ijodi namunasidir.

Amiriyning nazira g'azalida ham e'tibor, asosan, vaslga qaratiladi. Lirik qahramon vasldan masrur va shodmon. U asl maqsadga erishgan. Shu sababli, haqiqiy vaslga ishora qiluvchi turli ramzu majozlarni inkor etadi. Jumladan, 2-baytda sunbul, rayhon timsollariga kokil va xatni muqobillashtiradi. Shoir laff va nashr san'atini qo'llab, sunbulu kokil, rayhonu xat timsollaridan o'z fikrini ifodalash uchun foydalanadi.

Sajjodiyning tasavvuf lug'atida zulf – kokilning turli izohlari beriladi. Shulardan birida: “Zulf – hech kim anglayolmaydigan g'oyiblik mohiyatidir”, deyiladi. Amiriy lirik qahramoni yuqori maqomda turib, xuddi ana shu mohiyagga yetishni orzulaydi:

Sunbulu rayhon shamimin aylamasmen orzu,
Kim, tilarmen kokuli xatti abirafshon isi¹.

Tasavvuf lug'atlarida vasl – Haqdan boshqa hamma mavjudlikni unutish ma'nosida talqin etiladi². Amiriy g'azalida ham lirik qahramon ana shunday o'zini va borliqni unutgan visol holatida:

Vasl umidida erdim oxiri toptim murod,
Shukrilillah, kelmadi hargiz menga hirmon isi.
Vasl o'lg'och yorga aydimki: hajringdur balo,
Aydi ul gul: vaslaro kelturmagil hijron isi.

G'azal mumtoz adabiyotga xos bo'lgan ko'p ma'noli mazmunga ega. Zohiran qaraganda, bir go'zal dilbarga oshuftalik, visol va hijron tuyg'ulari ifodalangandek ko'rinadi. Ammo, botinan g'azal zamirida ramziy obrazlar vositasi

¹ Амирий. Девон. –Т: Фан, 1972, 236-бет.

² Доктор Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. Техрон, 1279, -7.86-бет.

bilan ishora etilayotgan teran ilohiy mohiyat mavjuddigini ham anglash qiyin emas:

Yorga aydim: yuzu zulfung asirimen Amir,
Aydikim, keldi bu so'z din kufr ila iymon isi.

Ma'lumki, tasavvufda yuz – ilohiy jamol tajallisi. Zulfning esa turli ma'nolari bor. Shunday ma'nolaridan biri Sajjodiy lug'atida quyidagicha izohlangan: “Dar “Istilohoti sufiya” omadaki, zulf kinoya az zulmati kufr ast”. Ya'ni, “So'fiy atamolari”da keltirilishicha, zulf – kufr zulmatiga ishoradir. Shunday ekan, yuqoridagi baytda shoir uslubidagi ko'p ma'nolilikka uning o'zi ham ishora qilib ketayotganga o'xshaydi. Chunki, zohiran majoziy, botinan esa ilohiy vasl holati o'z ifodasini topgan. Bunday xulosaga kelishimizga asarda qo'llanilgan ramzlar, timsollar va so'zlar tizimi ham asos beradi. Ayniqsa, yuz va zulfga, kufr va iymon so'zining zidlantirib qo'llanishi bu mohiyatni yanada oydinlashtiradi.

Uvaysiy she'riyati ruhiy tahlilning nihoyatda chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning devonida ham “Isi” radifli 7 baytdan iborat g'azal bor. U ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Navoiy, Amiriy, Furqat g'azallaridan farqli ravishda unda fikr bir-biriga zid holat vasl va hajr tuyg'usi haqida boradi.

Uvaysiyning hodisalarga yondashishi, talqin etishi o'ziga xos. Jumladan, ushbu g'azalda vasl holati tasvirga olingan.

Lirik qahramon vaslga erishgan. Ammo, u “shodmonliqda g'amginlikni unutmang” aqidasi ga amal qiladi.

Hozirda vasl og'ushida bo'lsada, hijron haqida eslaydi. Uning riyozatlarini xotirlaydi. Unutmaydi. Ushbu g'azalda shoira mahoratining ikki qirradi ko'rinadi:

1. O'zi yaratayotgan timsolning ichki olamini chuqur talqin eta olish;
2. So'zlarni tanlash va qo'llashdagi o'ziga xos noyob iste'dodini namoyon eta olish.

Uvaysiy g'azalidan shoira ko'zlagan muddao boshqa shoirlarning mazkur radifli asarlaridan farqlanmaydi. Ammo, uslub, mahorat, poetika nuqtai nazaridan keskin farklanuvchi qirralar bisyor.

Avvalo, shoira asarida ayollarga xos teran mushohada yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoira uslubiga xos chuqur ruhiy tahlil, hayot mohiyati, inson ruhiyatini anglashga intilish, so'zlar zamiridagi hayotni, dardlarni uyg'otib qo'llay olish san'ati yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, qofiya tarzida tanlangan so'zlar bu borada alohida ahamiyatga molik.

Ma'lumki, sportda g'alaba ta'minoti vujudagi butun quvvatni, zarbani a'zolarining bir nuqtasiga – qo'lga jamlay olish mahoratiga bog'liq. Nazarimda, she'rdagi qofiya xuddi shunday vazifani bajaradi. Unda ham she'rning butun quvvati jamlanadi va she'rxon qalbi mo'ljalga olinadi. Qofiya uchun muvaffaqiyat bilan tanlangan ana shunday o'tkir so'zlar she'r va shoir maqomini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mazkur g'azaldagi qofiyalar xuddi ana shunday vazifani bajarishga bexato yo'naltirilgan so'zlardir.

Shoiraning mazkur g'azali nazira shaklida yaratilgan. Shu sababli, ma'lum ma'noda o'zi ta'sirlangan g'azallarga noziklik bilan, sezdirmay o'z munosabatini ham bildirib o'tadi. Jumladan, Amiriy g'azalida ham ilohiy jamolga, ham majoziy dilbar qiyofasiga chizgilar yaqqol seziladi.

Yuqorida keltirganimizdek, vasl Haqdan boshqa hamma narsani unutmoqdir. Ammo, Amiriy g'azali lirik qahramoni tabiatida bunday yuksak maqomdan chekinish holatlari ko'rinib turadi. Undagi oshiq ba'zan o'zini unutsa, ba'zan dunyoviy maqomi borasida ham faxr va kibr bilan eslaydi:

Gulshani ayyom eli yuz shukr farmonimdadur,
Kelmagay, yorab, bulardin vardi nofarmon isi.
Yorga aydim: yuzu zulfung asirimen Amir,
Aydikim, keldi bu so'zdin kufr ila iymon isi.

Shu sababli ham, Uvaysiy o'z g'azali matlasida, bizningcha, “vasldan hijron isi keladi” deya salaflari fikriga munosabat bildirib o'tadi. Chunki tasavvuf lug'atlarida “Hajr – Haqdan boshqaga zohiriy va botiniy iltifot”, deya sharhlanadi.

Demak, shoira g'azalining 1-baytini Amiriy g'azalidagi oshiq holatining, ma'lum ma'noda, tanqidga olinishi deya qabul qilishimiz mumkin. Chunki Amiriyda vasl haqida so'zlanyapti. Ammo, dunyoviylikka iltifot unutilmayapti. Shu sababli, Uvaysiy o'zining chuqur ma'noli e'tirozini ifodalayapti:

Keldi vaslingdin netaykim, bu kecha hijron isi,
Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi¹.

Ikkinchi misra birinchi misraning biz keltirgan talqini bilan bog'liq. Hazrati Maxdumi A'zam Dahbediy o'zining “Ruboiylar sharhi risolasi”da so'zlash va kulishni shunday izohlaydi: “Bilgilki, so'zlash va kulishdan maqsad ul zotning go'zal ismlariyu sifatlarining solik qalbida tajalli qilishidur”.

Demakki, vaslga mukammal erishilmagan ekan, tajalli ham to'liq bo'lolmaydi. Shu boisdan Uvaysiy har bir solik va oshiqqa saboq bo'luvchi chuqur mazmunli fikrni bayon etadi.

Uvaysiy so'zlarni nihoyatda donishmandlik bilan tanlaydi. Har bir so'z lirik obraz holatini inkishof etadi. Jumladan, “Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi” birinchi baytning ikkinchi misrasi. “Yig'i aralash tabassum qilish”ning o'zi she'rxonni lirik qahramon holatiga olib kiradi. Uning tuyg'ularini anglashga yaqinlashtiradi.

Yig'i ma'nosining, aynan, giryon so'zi orqali ifodalanishining o'zida ham, shoira nazarda tutgan chuqur mantiq borligini anglash qiyin emas. Bunday aniqlik bilan holat suratini chizib bera olish Uvaysiyning shoira sifatidagi o'ziga xos mahorat qirralaridan biridir.

Amiriy g'azalida vaslga erishganlik haqida masrurlik bilan kuylanadi. Ammo, Uvaysiyda bu holat butunlay farq qiladi. Uning lirik qahramoni o'zi

¹ Увайсий. Кўнгил гулзори. –Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 84-бет.

ko'tarilgan maqomdan qanoatlanmaydi. Amiriy asarida masrurlik ruhi ustuvor bo'lsa, Uvaysiyda mahzunlik ustuvor.

Mashrab tal'atidagi ishq maqomining yuksakligini ta'kidlash maqsadida, rivoyatlardan birida, "Oh deganda nafaslaridan qovurilgan go'shtning bo'yi kelardi", deyilgan. Uvaysiy g'azalining ikkinchi baytida ham xuddi ana shunday maqomdagi oshiq holati o'ziga xos ifodasini topgan. Garchi u Majnun kabi, dili ishq g'ami bilan to'lgan bo'lsada, la'lining shavqida yurak-bag'ri qovurilgan, iztirobda. Mazkur baytda shoira so'zlarni turli ma'no tovlanishlarini e'tiborda tutib qo'llagan. Jumladan, La'li so'zi Majnun bilan yonma-yon ishlatilganligi sababli Layliga ishorani ham bildiradi. Undan tashqari, la'lining lab ma'nosidan kelib chiqib, zohiriy ishtiyoq va ramziylik bilan bog'lab, ko'ngildagi ilohiy tajalliga ehtiyojmandlik ma'nolarida ham qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi misradagi bag'ir va biryon so'zlaridagi undoshlar uyqashligi ohangdorlikni va mazmuniy mutanosiblikni ta'minlagan.

Ishqning ibtidosi oshiqlik, intihosi vasl. Ammo shoira asarida vasl ishq intihosi emas, balki uni yanada olovlantiruvchi cho'g' sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon Majnun maqomidagi oshiq. Uning dili ishq g'ami bilan limmo-lim. Bag'ri esa tajalli shavqida qovurilgan. Oshiq o'zining ushbu holatini gul ochilganda bulbulning xonishi yanada avj olishi bilan qiyoslaydi. Vaslga yetganda ham ishqning otashin pardalarida fig'onu nolalari baralla taralishini ta'kidlaydi:

Gar tabassum etsa gul, bulbulga orom o'lmagay,
Lablaring to xandadur, mendin kelur afg'on isi.

Mazkur g'azal zohiran qaraganda, oshiqning majoziy vasl va hajr tuyg'ulari izhori sifatida taassurot qoldiradi. Ammo, Uvaysiy uslubidan kelib chiqib, chuqurroq yondashsak, asar ilohiy ishq va tajalli falsafasini o'zida mujassamlashtirgan murakkab ramziy ma'nodagi asar ekanligini anglaymiz. Shoira orifona g'oyalarini ifodalashda ko'p ramziy timsollarni qo'llaydi. Vasl, tabassum, la'l, subh, rayhon, gul, bulbul, lab, Yusuf kabi timsollar shular jumlasidandir.

Mazkur asarning taraqqiyot tarixida Furqat tomonidan yaratilgan g'azal ham muhim o'rin egallaydi. U 7 baytdan iborat. Asarning shakliy xususiyatlari salaflari ijodidagi kabi saqlangan. U Navoiy asaridagi 5 ta qofiyani qayta qo'llagan (jonon, rayhon, qon, jon, xandon). Furqat g'azali salaflari asarlaridan juda katta farq qilmaydi. Ammo, undagi mahorat qirralari, tasvir uslubi o'ziga xos va yangichaligi ko'rinib turadi. Ayniqsa, bu jihat g'azalning so'nggi baytida yaqqol namoyon bo'lgan. Mazkur baytda Navoiyda ham, Furqatda ham bir xil qofiya, radif (xandon isi), bir xil timsol qo'llaniladi. Ammo shoirlarning individual yondashuvi natijasida badiiy ashyolar asarda turli vazifani bajarib keladi. Navoiyda og'iz va dur tishlar shabnam va ochilgan g'unchaga tashbehlanadi. Bu yerda shoirning tashbeh uchun tanlagan ashyolarining nihoyatda mutanosibliigi ko'rinadi. Oppoq, durdek tishlar marvarid yanglig' shabnam donalariga, og'iz esa tabassumga shaylangan g'unchaga qiyoslanadi. Furqatda esa mazkur "xandon isi" qofiya va radif butunlay boshqa – ijtimoiy mazmun va mundarija kasb etadi. Shoir jahon ayvonidagi nomukammallik va noqisliklardan iztiroblanish tuyg'ularini ifodalash uchun foydalanadi:

G'ussadin qon yutmayin naylay, jahon gulzoridin,
Topmasam sho'rida, Furqat, bir guli xandon isi¹.

Ushbu bayt shoir g'azalida eng so'nggi – 7 bayt bo'lib keladi. U asar g'oyasining kulminatsion nuqtasi vazifasini bajaradi. Holat tavsifiga bag'ishlangan g'azal so'nggi baytda dunyo va insoniyat ma'naviyatiga nisbatan keskin isyonni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy, umumbashariy mohiyatga ega bo'ladi.

Navoiy g'azali ta'sirida yaratilgan mazkur "Isi" radifli asarlar o'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Qo'qon adabiy muhitida an'ana va novatorlik masalasini, ularning o'zaro munosabatini aniqlashda muhimdir.

¹ Фурқа–Т Танланган асарлар. 2 томлик., 1-жидд.–Т: Ўзбекистон Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959, 84 - бет.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bir xil mavzuda, bir xil vaznda, bir xil radifda yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, har bir ijodkor qalamidan chiqqan asar o'ziga xos yangi ijod mahsuli sifatida dunyoga keladi. Unda har bir ijodkorning tafakkur tarzi, dunyoqarashi, falsafiy mushohadalari o'z ifodasini topadi. An'anaviylikning saqlanishi bilan birga mavzuga yangicha yondashuv, yangicha tasvir tizimi ko'zga tashlanadi. Ular birbiriga o'xshashi bilan birga, davr ruhini, uning muammolarini yoritish, tasvirlash tamoyil bilan farqlanib turadi. Shu sababli, har bir ijodkor yaratgan asardagi mazmun, fikr, g'oya, tasvir tamoyillarida taraqqiyot belgilarini kuzatamiz. Mazkur g'azal Navoiy tomonidan yaratilgan oshiqona yo'nalishdagi asardan tasavvufiy va nihoyat ijtimoiy yo'nalishdagi g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan, keng qamrovli asar maqomigacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'rganligini kuzatishimiz mumkin.

Demak, ko'rinadiki, nazira va tatabbu' she'rlar bitish o'zbek adabiyotining ilg'or vakillari ijodida dastlabki davrlardan boshlaboq, o'zida yangilikka bo'lgan intilishni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanilgan"¹. Tazmin usulida yaratilgan g'azallarda an'anaviylik bilan birga har bir shoirning o'ziga xos qirralari, dunyoqarash va fikrlash tarzi ham namoyon bo'lgan. Tazmin, nazira, taxmis usullari shunchaki taqlidchilik emas, balki ular har bir iste'dodli ijodkor uchun ulkan mahorat maktabi vazifasini bajargan.

¹ Р.Орзибеков Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамма–Т –Т: Фан, 1976, 42-бет.

II bob. Uvaysiy lirikasida kichik janrlar takomili

2.1. Uvaysiy ijodida fard janri

O'zbek mumtoz adabiyotida Jahon otin Uvaysiy ijodi o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. U nafaqat mazmun, ma'no va badiiy san'atkorlik nuqtai nazaridan, balki janrlar takomilida ham takrorlanmas iqtidorini namoyish eta olgan. Xususan, mumtoz she'riyatdagi kichik janrlarda yaratgan asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Fard – adabiyotdagi eng kichik janr. U arabcha “yakka”, “yolg'iz” degan ma'noni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida esa birgina baytdan iborat mustaqil asar demakdir. Unda kuchli mantiqqa eta bo'lgan hikmatomuz fikr ifodalanishi shart. Chunki, o'tmishdagi qalamkashlar fardlar yaratishni bir san'at, san'atkorlik ishi, ma'nolar xazinasidan gavhar sochish deb bilganlar”¹. Adabiyotshunoslikda fard, uning paydo bo'lish asoslari, xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan². Ammo janr sifatida uning hali hal etilishi, oydinlashtirilishi lozim jabhalari anchagina. Jumladan, fardning qofiyalanishi haqida adabiyotshunoslikda turli qarashlar bor. Ba'zi manbalarda “fardlarda ikki misraning qofiyalanishi shart” deyilsa, ba'zilarida “fard misralari o'zaro qofiyalanmaydi”, ba'zilarida esa “qofiyalanishi ikki xil (a-a va b-a) bo'lishi mumkin” deyiladi.

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy 1436-1437 yillarda yaratilgan “Funun ul-balog'a” asarining janrlar bayoni qismida fardga to'xtalib shunday ta'rif beradi: “Fard ikki misra bo'lur. Avvalg'i misraida qofiya bo'lmas...”³.

Asarda Kamol Xo'jandiy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dexlaviy, Kirmoniy, Nosir Buxoriy, Sakkokiy Sayroniy, Lutfiyi Shoshiylarning fardlaridan namunalar keltiriladi. Hammasi qofiyasiz, ya'ni b-a shaklidagi fardlar.

Sakkokiy va Lutfiyning devoniga ham qofiyasiz, ya'ni b-a shaklidagi fardlar kiritilgan. Demak, adabiy jarayondagi holatdan xulosa chiqaradigan bo'lsak, XV asr

I yarmigacha fard janri yuqoridagi shaklga ega bo'lgan. Ya'ni ikki misradan iborat

¹ P.Орзибеков. Лирикада кичик жанрлар. –Т: 1976, 119-бет.

² Қаранг: ўшаасар, 117-131-бетлар.

³ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул- балоға. –Т: 1996, 69-бет.

bo'lib, qofiya bo'lmagan. Ammo juz'iy hollarda uning a-a shaklida qofiyalangan turiga ham manbalarda duch keldik. Lekin bu ko'rinish xos xususiyat darajasiga ko'tarilmagan.

Navoiy ijodidan boshlab, bu janrning yanada takomillashgan ko'rinishlarini kuzatamiz. Uning "Xazoyin ul maoniy" devoniga 86 ta fardi kiritilgan. Ularni kuzatib, quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, Navoiy o'z fardlarida g'oyaviy mundarijani teranlashtirishga erishgan. Ularda chuqur hikmatomuz mulohazalarni, hayotiy xulosalarni ifodalagan.

Ikkinchidan, Navoiyga qadar qofiya fard janri uchun xos xususiyat bo'lmagan. Navoiy bu janrning har ikkala misrasini qofiyadosh so'zlar bilan ziynatlagan. Bu esa o'z navbatida asarga ohangdorlik bagishladi. So'zlarning rang-barang ma'noviy qirralari orqali esa she'r g'oyaviy teranlik kasb etdi.

Uchinchidan, Navoiy devonlariga kiritilgan 86 farddan 79 tasi qofiyali, 7 tasi esa qofiyasiz shaklda yaratilgan.

Navoiydan keyin fard janri yana takomillashib bordi. Keyinchalik ayrim shoirlar ijodida tajnisli fardlar yaratilganligini ko'ramiz. Jumladan, Bobur devonida 26 farddan 2 tasi tajnisli qofiya, 23 tasi qofiyali, 1 tasi qofiyasiz ko'rinishga ega.

Fard janri takomilida Uvaysiyning alohida o'rni bor. Bizga uning 4 ta fardi ma'lum. Ularning barchasi tajnisli qofiya asosida yaratilgan. Shoira ularda hayotiy kuzatishlaridan anglagan chuqur falsafiy mulohazalarini ifodalashga erishgan. Har bir fardda shoira shoiraning takrorlanmas kuzatuvchanlik, hayolchanlik inkishofini ko'ramiz.

Uvaysiy devoniga kiritilgan to'rtala fard ham ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Ularda shoira she'riyatiga xos bo'lgan teranlik va falsafiy mushohada sezilib turadi:

Dilbaro, o'ltur boshingdin aylanay,

Pandam ol, o'lsam so'ngokim ayla nay¹.

Zohiran qaraganda, bayt mazmuni oddiy: “ey dilbar, yonimda o'tirgin va nasixatimni eshit. Agar o'lsam suyagimdan nay yasagin”. Ammo shu o'rinda savol paydo bo'ladi. Xo'sh, nega lirik qahramon o'lganda suyagidan nay yasashni so'rayapti? Shoirning maqsadi, g'oyasi ana shu nay timsoliga singdirilgan. Bu yerda nay ramz sifatida qo'llanilgan. Sharq mumtoz adabiyotida nay chuqur mohiyatga ega. She'riyatimizda uning turlicha talqinlari bor. Jaloliddin Rumiylar “Masnaviy”sidagi fikrlar nay ramzi mohiyatini bir qadar oydinlashtiradi:

Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,
Ayriliqlardan shikoyatlar qilur.
Men qamish erdim kesib keltirdilar,
Sanilur deb ta'naga o'ldirdilar.
Pora-pora qildi ko'ksimni firoq,
Baski, so'yla endi dardi ishtiyoq...².

Demak, nay asliyat, undan uzoqlashish ramzi. Chunki nay qamishdan yasaladi. U qamishligida yam-yashil, tirik edi. Uni kesib aslidan ayirdilar U ayriliqdan sarg'aydi. Undan nay yasadilar. Endi u g'ariblikdan, hijrondan fig'on cheka boshladi. Ruhiyatning teran pardalarini tebratuvchi nay nolasi asliyatga, o'zligiga qaytish ishtiyoqi, ishq sadosidir.

Demak, Uvaysiy fardida bu timsolni bejiz qo'llamagan. Butun ijodi davomida o'zlikni anglash, o'zlikka yetish g'oyalarini targ'ib etgan shoira o'quvchi diqqatini yana bir bor nay timsoli vositasida hayot mohiyatini anglashga qaratadi.

Demak, shoira fardlari teran falsafiy mohiyatga ega asarlardir. Ko'rganimizdek, ularda shoiraning maqsadi, g'oyalari har doim ham oshkora

¹ Увайсий. Девон. –Т: 1963, 223-бет.

² Румий Жалолиддин. Учмоққа канот йўқ (ЖЖамол тарж.). –Т: 1994, 6 - бет.

jumlalarda bayon etilmaydi. Uning fikrlari matn ortida ham davom etadi. Botiniy mazmun o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritishga majbur qiladi.

Ushbu teranlikka shoira o'ziga xos tasviriy ifodalarni qo'llash orqali erishgan. Qisqa satrlarda bir nechta badiiy san'atlardan foydalangan. "Aylanay" so'zini qofiya uchun tanlab tajnis san'atini qo'llagan. U birinchi misrada xayrixohlik, mehr-muhabbat izhori ma'nolarida ishlatilgan. Ikkinchi misrada "ayla nay", ya'ni "nay – cholg'u sozini yasagin" ma'nosini beradi. Bir so'zning turli ma'nolarini qo'llash ijodkorga katta imkoniyat yaratadi. Natijada, u qisqa hajmda teran mohiyatni ifodalashga erishadi.

Ushbu fardda Uvaysiy iychom san'atidan ham mahorat bilan foydalangan. Ma'lumki, iychom ulkan iste'dodni talab etadigan, murakkab san'at. U asarga o'zgacha tarovat baxsh etadi. So'zdagi yashirin ma'no qirralarini faollashtiradi. Kashf etilmagan ma'noviy tovlanishlarni jilolantiradi. "So'zlardan so'zlarni uyg'otadi". Bu san'atga Shayx Axmad Taroziy "Funun ul-balog'a"da yuqori baho beradi: "Bilgilkim, bu san'atlarning har birining she'rda alohida ziynati bordur. Faammo, iychom birla hayolning o'zgacha holati bordir"¹. U iychomga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu aningtek bo'lurkim, lafze ayturlarkim, andin uch ma'no qo'pqoy. Va ba'zilar ayturlarkim, ikki ma'no bo'lg'ay. Ikkalasi qariyb"².

Bu san'atni Uvaysiy fardda mahorat bilan qo'llagan. U "o'ltur" so'zi vositasida iychom yaratgan. So'zning ikki ma'nosini nazarda tutgan. Birinchisi "o'tirmoq" fe'lining buyruq mayli ma'nosida, ikkinchisi "o'ldirmoq" fe'li buyruq mayli ma'nosida ishlatilgan.

"O'ltur" so'zining birinchi ma'nosi zohiriy ma'no. Unda lirik qahramon dilbarga murojaat qilib, yonida o'ltirishga va nasihatini tinglashga taklif qiladi. So'zning ikkinchi ma'nosi botiniy mazmunga ega bo'lib, lirik qahramon mahbubaga meni o'ldir, deb iltijo qiladi. Bu iltijoning zamirida biz falsafiy mohiyat ko'ramiz.

¹ Kўрсатилган асар, 99-бет.

² Ўша асар, 99-бет.

Ma'lumki, vujudiy intilishlar insonni ruhoniy hayotdan uzoqlashtiradi. Moddiylikka mag'lub kishi asl maqsaddan chalg'iydi. Shunday ekan, Uvaysiyning umumiy falsafiy dunyoqarashidan kelib chiqib, u vujuddan ozod bo'lishni orzulayapti, degan xulosaga kelamiz. Bu fikrimizni keyingi misradagi "... o'lsam so'ngokim ayla nay", jumlasini ham asoslaydi. Nay timsoli orqali biz asliyatga yetish ilinjida fig'on chekayotgan otashin oshiq ramzini anglaymiz. Uvaysiy lirik qahramoni hamisha ishqning ana shunday mo'tabar martabasiga yetishni orzulagan. Shoir o'zining badiiy niyatini amalga oshirishda nay timsolidan mahorat bilan foydalana olgan. Chunki ishq iztiroblari, oshikdik nolalarini, xdtto, so'z ham nay oxangichalik ifodalay olmaydi. Zero, allomalardan biri: "Qalb tafakkurga nisbatan ohangda ko'proq aks etadi"¹, – deya bejiz aytmagan.

Sharqshunos olimi L.N. Serikova Alisher Navoiy fardlari haqida gapirar ekan, Agar muayyan olingan bir mavzu yoki obraz shoir tomonidan boshqa janrda istifoda etilgan bo'lsa ham, fardda ular o'zgacha talqinga ega bo'ladi"², – deb yozgan edi. Bu holatni biz Uvaysiy fardlarida ham kuzatamiz.

Uvaysiy devonida bir g'azal bor. U ham "Dilbaro, o'ltur, boshingdin misli gardun o'rgulay..."³ misrasi bilan boshlanadi. Agar fardda shoiraning inson hayoti, maqsadi va dunyo mohiyati haqidagi falsafiy mushohadalari singdirilgan bo'lsa, g'azal oshiqona yo'nalishda. Unda oshiqning majnunvor ishq po'rtanalaridagi ruhiy holati ifodalanadi.

G'azalda lirik qahramonning dunyoviy va ruhoniy kayfiyatlari, ular o'rtasidagi ziddiyat, kurash o'z ifodasini topgan. U shunday bir ruhiy holatdagi, zamon va makon munosabatini unutgan. Uning nazdida ikki tushuncha birlashib, yaxlitlikka erishgan. Oshiq esa yaxlitlikka singigan:

To ko'rib rasvolig'im or etma, ey hush ma'dani,

Bovar etgil kecha-kunduzlarda maknun o'rgulay".⁴

¹ Тўлаганова У. Ритм — асар жозибаси. "Жаҳон адабиёти" журнали, 2004, сентябрь, 146-бет.

² Серикова Л.Н. Структура и специфика фарда Алишера Навои. В кн.: Малые формы лирики Алишера Навои. –Т: 1981, стр. 82.

³ Жалолов –Т Узбек шоиралари. –Т: 1980, 62-бет.

⁴ Уша асар, 62-бет.

Lirik qahramon tashna. U soqiyga murojaat qilib may tilaydi. Bu tashnalikdan, xumorlikdan oh-nola chekmaydi, balki undan mamnunlik izhor etadi:

Soqiyo, jon yetdi labg'a, va'da qil la'ling mayin,
Garchi man labtashnaman, xummori mamnun o'rgulay.

Bu yerda soqiy, may timsollari ramziy ma'nolarda – ilohiy ishq unsurlari sifatida qo'llangan.

Mumtoz adabiyotda “ko'z yoshi to'kish” faol iboralardan. U ko'ngulni poklaydi, g'uborlarni aritadi. Ko'z yoshining oyna kabi tiniqligi ko'ngilga ko'chadi. Shuning uchun ham poklovchi vosita sifatida u oshiqning yo'ldoshi:

Tangri xalq etmish mani muflis gadolardin netay,
Yo'q diram, yo'q toatim, ko'z yoshi Jayhun o'rgulay¹.

Lirik qahramon oshiq, ammo oddiy emas, balki majnunsifat oshiq. Shuning uchun uning nolasi, hasrati ham boshqacha, holati “digargun”. Ushbu g'azalda zohiriy va botiniy mohiyat mujassam. Shoira oxirgi baytda shunga ishora qiladi:

Demagil Vaysini san, ud Vaysiyi bexonumon,
Fahm qilg'il hasratim, holi digargun o'rgulay².

Demak, fard va g'azal bir xil misra bilan boshlansa-da, ularda ifodalangan ma'no, shoiraning ikkala asaridan ko'zlagan maqsadi o'zgacha. Fardda lirik qahramonning olam va odam mohiyati borasidagi mushohadalari falsafiy va donishmandlik nuqtai nazaridan ifodalangan. Lirik qahramon chuqur mulohaza yurgizuvchi faylasuf sifatida taassurot qoldiradi.

¹ Ўша асар, 62-бет.

² Ўша асар, 62-бет.

G'azalda esa majnunvor ishq po'rtanalarida o'zini unutgan oshiq timsolini ko'ramiz. U majoziy va ilohiy ishqni o'zida mujassamlashtirgan. Xullas, fard janri shoira ijodida muhim mavqeda turgan. Borliq haqida o'zi anglagan haqiqatlarni ifodalash, Chuqur falsafiy, hikmat darajasidagi fikrlarni bayon etishda qo'l kelgan.

2.2. Shoira ijodida chistonning o'rni

Chiston (lug'z) Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos sirli-sinoatli nazm namunasi hisoblangan. Har qanday so'z san'atkori ham she'rning bu noyob usulida quch sinasha olmagan. U yuksak badiiy san'at namunasi sifatida baholab kelingan. Jumladan, Zayniddin Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'» asarida eslanishicha, Qul Ubaydiy donishmandlar bilan bo'lgan bir suhbatda lug'zning adabiy jarayondagi mavqeini shunday baholagan: «Lug'z she'rning shunday nav'iki, tab' tarozusida g'oyat mavzundir. Tab'i halol kishilarning unga mayli haddan ziyoddir...»¹. Atoulloh Husayniy ham «Badoyi' us-sanoyi'» asarida lug'zni shunga yaqin izohlaydi².

U arablarda lug'z, lug'az, fors va turklarda chiston³ deb atalgan. «Lug'z, lug'az» so'zi mo' tabar izohli lug'atlardan biri «G'iyos ul-lug'ot»da shunday izohlangan: «Lug'az so'roxi mushi dashty; va on bag'oyat pechdor boshad, lihozo nomi nav'e az kalomi mubham, ki ba forsi chiston go'yand»⁴. (Mazmuni: Lu g'az – dasht sichqonining ini. U juda egri-bugri bo'ladi. Yana forschada chiston, deb ataluvchi yashirin so'z turining nomi). Ko'ringanidek, lug'z so'zi istilohning maqsadini to'la ifodalay oladi.

Atoulloh Husayniy ham yuqorida tilga olingan asarida lug'z haqida batafsil to'xtaladi. Uning lug'aviy ma'nosi, istilohiy mohiyati o'z davri adabiyotshunosligidagi o'rganilish tarixini yoritadi. Rashididdin Vatvot, Qays

¹ Восифий З. Бадоеъ ул-вакоеъ. –Т: 1979, 48-бет.

² Хусайний Атоуллох. Бадойиъ ус-санойиъ. –Т: 1981.105-бет.

³ Кейинги ўринларда чистон деб қўллаймиз.

⁴ Гиёсиддин Муҳаммад. Гиёс ул-луғо–Т Жилди II. Душанбе, нашриёти «Адиб»,1988, 211-с.

Roziy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning fikrlari va ularga o'z munosabatini bayon etadi. Ular bilan bahs-munozaraga kirishadi.

Mumtoz adabiyotshunoslikka oid asarlarni kuzatar ekanmiz, barchasida lug'z mumtoz badiiy san'atlardan biri sifatida talqin etilgan. Qays Roziy, Rashiddin Vatvot, Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, lug'z va muammo haqida «Hulali mutarraz dar fanni muammo va lug'z» (Muammo va lug'z fani to'g'risida bezatilgan ipak kiyimlar) deb nomlangan alohida asar yozgan Sharafiddin Ali Yazdiy ham lug'zni o'z asarlarining badiiy san'atlar qismida izohlaganlar. Ahmad Taroziy «Funun ul-balog'a» asarida lug'z san'atining xususiyatlarini aniq va sodda tushuntirib beradi: «Bu aningtek bo'lurkim, bir narsaning otin va haqiqatin yoshu rub, mushabbah G'unG' bih lafze birla savol qilurlar»¹.

Har bir she'rni janr sifatida tasniflashda ma'lum belgilar inobatga olinadi. Ammo, lug'zni hajm, vazn, qofiya, radif nuqtai nazaridan kuzatsak, xos xususiyatlar ko'zga tashlanmaydi. Demak, lug'zni alohida janr deb qarash haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Uni she'riy san'atlardan biri deb qarash to'g'riroqdir.

O'zbek mumtoz adabiyotida uning g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy, fard shakllarida yaratilgan namunalari uchraydi. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devoniga kiritilgan 10 ta chistondan 8 tasi qit'a shaklida, 2 tasi to'rtlik shaklida². Uvaysiy chistonlari g'azal, to'rtlik va ikkilik shayusharida yaratilgan.

Lug'z istiloh sifatida arablarda shakllangan. Ammo turkiy adabiyotdagi chiston xalq og'zaki ijodidagi topishmoq janri bilan ham chambarchas bog'liq.

U XI asrda fors-tojik adabiyotiga kirib kelgan. Tojik adabiyotshunoslarining ta'kidlashicha, chiston dastlab qasida muqaddimasida gashbib³ tariqasida paydo bo'lgan va vafning bir qismi sifatida taraqqiy topgan⁴. Fors adabiyotida birinchi chistonni Rudakiy yozgan degan tahmin bor.

¹ Тарозий Аҳмад. Фунун ул-балоға. –Т: 1999, 127-бет.

² Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. III жилд. Бадойиъ ул-васа-Т –Т: 1960, 713-716-бетлар.

³ «Ташбиб -- луғатта хотун жамолининг сифатин ва ўзининг ишқий аҳволин демакгур. Шуаро урфинда эса ул шеър бағишланган кишининг мадҳи ё ҳажвидин ўзга шеър бошинда берилган ҳар бир васфдин ибораггур.». Хусайний Атоуллоҳ. Бадойиъ ус-санойиъ. –Т: 1981, 270-6.

⁴ Зеҳний –Т Санъати Сухан. Душанбе, нашриёти «Ирфон», 1979, сах. 134.

Taniqli adabiyotshunos R.Orzibekov «Lirikada kichik janrlar» asarida chiston haqida to'xtalib, o'zbek adabiyotida dastlabki chiston Alisher Navoiy tomonidan yaratilganini ta'kidlaydi: «O'zbek xalq og'zaki ijodida Navoiygacha ham topishmoq usulidagi namunalar bo'lsa ham, lekin yozma adabiyot vakillari ijodida hozircha chiston she'rlar uchramaydi. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz shoirlari orasida birinchilardan bo'lib chiston aytishga kirishdi va uning yozma adabiyotdagi o'rnini qonuniylashtirdi»¹.

Ammo izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida Navoiyga qadar ham chiston namunalari uchraydi. Jumladan, 1436-1437 yillarda yaratilgan Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asarida o'zbek tilida ijod etilgan chiston keltiriladi:

Nedur ul la'lki, paydo bo'lur andin guhar?

Goh paydo bo'lur anda mayu gah shiru shakar².

Javobi «lab» bo'lgan ushbu chistonning badiiy pishiqligi uning o'zbek adabiyotida yagona hodisa emasligini ko'rsatadi. Ma'lum bir tarixiy takomil jarayoniga egaligi anglashiladi. Ammo, afsuski, alloma uning muallifini ko'rsatmaydi. «Funun ul-balog'a»dagi an'anaga ko'ra, Taroziy kalamiga mansub bo'lishi ham mumkin.

Chiston har bir shoirning olam, odam va borliqni kuzatish, atrof-muhitni ilg'ash darajasini ko'rsatadi. Uning oddiy narsalardan badiiy obraz yaratish salohiyatini aniqlash mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Uvaysiyning shoira sifatida shuhrat topishida chistonnavisligining alohida o'rne bor. Ilmda u o'zbek adabiyotida eng ko'p chiston aytgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning nashr etilgan devonlarida 13 ta chistoni bor. Ammo, manbalarda uning "50 dan ortiq chistonlari ma'lum"ligi bayon etiladi³. Akademik Avliyo Muhammadiev o'z xotiralarida, hatto, shoiraning "Chistonlar to'plami"ni

¹ Orzibekov P. Lirikada kichik janrlar. –T: 1976, 151-бет.

² Тарозий Аҳмад. Фунун ул-балоға. –Т: 1996, 127-бет.

³ P. Orzibekov. Lirikada kichik janrlar. –T: 1976, 153-6.1

ko'rganini eslaydi. Bir nechta bizga noma'lum chistonlari nomlarini sanaydi: "Shoira enamning dugonasi bo'lgan. Chistonlar to'plami"ni sovg'a qilgan. Afsus, 1930 yillarda jonimizni asraymiz deb arab alifbosida yozilgan juda ko'p qo'lyozmalarni yo'q qilib yuborganmiz. Men qovun tiligi, aravaning o'qi, qaychi, anor haqida o'nlab chistonlarni yod olganman"¹.

Ijodi mahorat cho'qqisi sanalgan Alisher Navoiy devoniga 10 ta chiston kiritilgan. Biz Uvaysiyning chistonnavislikdagi kamolotini ustoz shoir ijodi bilan qiyosan yoritishga harakat qilamiz.

Navoiy ijodidagi chistonlar, asosan, hajm jihatdan katta. Ular 6,8,10 misradan, faqat 2 tasi 4 misradan iborat. Navoiy chiston uchun tanlagan narsani batafsil tavsiflaydi. Unga xos belgi, sifat va xususiyatlarni aniq ko'rsatadi. Inson hayotidagi o'rni va vazifasiga ham e'tibor qaratadi. Asar zamiriga jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi hodisa va holatlarni singdirishga harakat qiladi. Tanlagan narsa yoki obraz vositasida jamiyat noqisliklarini fosh etadi.

Navoiyning devonida «Miqroz» nomli chistoni bor. Shoir unda qaychining tuzilishi, shakliy xususiyatlarini tavsiflash yo'lidan boradi. Tasvir jarayonida qar bir misrada o'quvchini hayratlantirishga, chuqur fikrlatishga intiladi:

Ne qushlar erkin alarkim, birardurur qanoti,
Qanotining uchida har birisiga minqor.
Biror ayog'lari ham boru turfaroq bukim,
Ayog' uchida biror ko'z ham ettilar izhor.
Qachon ayog'larin olmashtururlar, ul soat
Qanot urarg'a bo'lurlar tayurdek tayyor.
Qanot ko'p urmoq ila bir kori ucharlari yo'q,
Ucharda garchi koridur alarg'a istizhor².

¹ Мадаев О. Аллома Авлиёхон. "ЎзАС" газ., 2006, 22 сен–Т

² Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. III жилд. Бадойиъ улваса–Т –Т: 1960, 714-бет.

Shoir qaychini shunday tasvirlaydi: Qanday ikki qushki, qanotlari bittadan. Har bir qanoti uchida tumshug'i bor. Bittadan ayog'i ham bor. Ammo ajablanarlisi shundaki, oyog'i uchida bittadan ko'zi ham bor. Ayog'lar harakatga kelganda esa, ular xuddi qushdek uchishga tayyor bo'ladilar. Ammo ko'p qanot urganlari bilan ucha olmaydilar. Garchi uchsalar ham, ularga, albatta, madad kerak bo'ladi.

Navoiyning mahorati shundaki, qaychining shakliy xususiyatlarini aniq, tushunarli va mukammal tasvirlagan. Shoir qaychining ko'rinishini badiiy timsollarda moddiylashtirgan. Qush, qanot, oyoq, ko'z, tumshuq timsollari shular jumlasidandir. Chiston 8 misradan iborat. Dastlabki 4 misrada shakl ko'rinishi tasvirlanadi. Keyingi 4 misrada esa shu narsaning harakatlanishi nazarda tutiladi. Navoiy ushbu chistonda shoirona taxayyulning noyob qudratini namoyish eta olgan. O'zbek mumtoz adabiyotida qaychining takrorlanmas, noyob tasvirini yaratgan.

Uvaysiy chistonlarida esa xalqona soddalik, donishmandlik va hajm jihatdan qisqalik ko'zga tashlanadi. Uning ham "Qaychi" deb nomlangan chistoni bor. U 2 misradangina iborat:

Ikki mahbubeni ko'rdum, ikkisin kindigi bir,
Ikkisin orasiga tushsang, topadursan kasir.

Shoira qaychining ikki oyog'ini ikki do'st timsolida moddiylashtirmoqda. Ular shunday qadrdon do'stlarki, hech qanday holat bir-birlaridan ajratolmaydi. Bunday yaqinlikni ifodalash uchun xalq "kindigi bir" iborasini qo'llaydi. Bu ibora mustahkam do'stlikni, ahillik ma'nolarini ifodalaydi. Shoira shu xalq iborasini ustalik bilan qo'llaydi. Xalq tomonidan ramziy ma'noda aytilgan fikrdan shoira ikki – xdm zohiriy, ham botiniy ma'noda foydalanadi. Qaychining zohiran kindigi bir va botinan ham bir. Chunki barcha ish birgalikda amalga oshiriladi. Chistonning birinchi misrasida qaychining shakl xususiyati tasvirlanadi. Ikkinchi misrada esa uning vazifasiga e'tibor qaratiladi.

Uvaysiyning she'riy uslubiga xos bo'lgan ko'pma'nolilik, ramziylik ushbu chistonda ham saqlangan. Shoira chistonda ham qaychi, ham do'stlik haqidagi tasavvurni mujassamlashtirgan. Ikki mahbuba timsoliga katta ma'naviy-ijtimoiy mohiyatni ham singdira olgan.

Qaychi – insonga do'st. U xayrli amallarni bajaradi. Ammo uning orasiga tushib qolsangiz, ayamaydi. Shoira bu holatni insoniy munosabatlarga ham tatbiq etadi. Ya'ni, do'stlik buyuk kuch. Agar unga rahna solinsa, halaqit berilsa, o'z kudratini ko'rsatadi. Rahnagarni chilparchin eta oladi. Uvaysiy bunday nuqtai nazarni chistonga bejiz singdirmagan. Chunki uning Nodirai davron bilan do'stona munosabatiga, ustozu shogirdlik maqomiga hasad nigoxi bilan boquvchilar ham yo'q emas edi. Bunday nazarlar shoira hayotidagi ko'p mashaqqatlar, iztiroblar, ma'naviy muhtarib kunlarga sabab bo'lgan.

Chistonda shoiraga xos qat'iyat va jasorat ham o'z ifodasini topgan. Uvaysiy uslubidan boxabar o'quvchi, misralar zaminidagi dadil hukmni anglashi qiyin emas. Bu, ayniqsa, ziddiyatlardan xabardor shoira zamondoshlariga juda tushunarli bo'lgan. Demak, "Qaychi" chistonida narsaning sifat va xususiyatlari aniq, tushunarli tasvirlangan. Shu bilan birga shoira mahorati tufayli unga jiddiy insoniy munosabatlar, muhim ijtimoiy muammolar ham singdirilgan. Bu asarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Navoiy va Uvaysiyning bir mavzuda yaratilgan «Anor» nomli chistonlari ham bor. Bularni qiyosan o'rganganimizda ham ikki shoir ijodining mushtarak va o'ziga xos qirralari namoyon bo'ladi. Ikkala shoir ham tabiatning mo'jizaviy, noyob ne'mati anorning sifat va xususiyatlarini mukammal tasvirlab bera olishgan.

Navoiy anorni tavsiflashda ikki timsoldan foydalanadi. Birinchisi, cho'g' to'ldirilgan mijmar, ikkinchisi, durlarini makkor davron qonga «uyurgan» (aylantirgan) sadaf:

Ne mijmardur, to'la axgar vale ul mijmar andomi,
Erur sun' ilgidin gohe musaddas, gah musamman ham.
Chiqar ravzandin axgari dudiyu bu turfakim, oning

O'tig'a dud yo'qtur, mijmarig'a balki ravzan ham.
O'tu mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning
Uyurdi qong'a davroni musha'bid, charxi purfan ham.
Agar bu nav emas, bas ne uchun barmoq kuchi birla
Bo'shar jismi, oqar qoni, anga majruh o'lub tan ham.
Nechakim tab'i noridur va lekin me'da norig'a
Berur taskin, munung naf'in topibmen voqian men ham.

Shoir timsol tanlashda anorning shakli, rangi va tuzilishini asos qilib oladi va nihoyatda nozik did bilan uning muqoyasasini topa oladi. Chiston o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Shoir, dastlab, anorni cho'g' to'la mijmarga o'xshatadi. Mazkur timsol uning sifatlarini to'liq mujassamlantiradi. Ammo, shoir bu bilan qanoatlanmaydi. U anorga yanada mukammalroq qiyos izlaydi. Uni endi sadafga o'xshatadi. Shoir bunda faqat anorning shakli emas, balki, uning uzoq davom etuvchi shakllanish jarayonini ham (sadafga dur paydo bo'lgani kabi) nazarda tutadi.

Asardagi timsol takomillashuvining 3-bosqichida esa, shoir anorning rangi bilan bog'lab, zamon haqidagi o'z dardlarini va qat'iy hukmini ham e'lon etadi. 4-bosqichda mayinlik bilan anorning vazifasini, foydasini tasvirlash orqali asarni xotimalaydi.

Ko'ringanidek, asarda Navoiyning she'riyatdagi kompozitsion o'ziga xosligi, timsol tanlash va yaratish borasidagi mahorati yaqqol namoyon bo'ladi.

Ushbu chiston qit'a janrida yaratilgan. Asar 5 bayt 10 misradan iborat. U hazaji musammani solim G'mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun; V ---V---V---V---G' vaznida yaratilgan. Ushbu vazn chuqur ijtimoiy ma'nolarni, zamon ahli qilmishlarining iztirobli ruhiy manzaralarini, mahzun kayfiyatni ifodalash imkoniga ega. Shoir tomonidan tanlangan vazn asardan nazarda tutilgan g'oya va maqsadga to'la muvofiq kelgan.

Tabiatning go'zal va mo''jizaviy ne'matlaridan biri anordir. Anor donalarining aqiq la'llardek bir tekisda terilganligi, nafis pardaga o'ralganligi va bu

sirli go'zallikning anor po'sti ortida pinhonligi Tangrining mo''jizasi deyish mumkin.

Uvaysiy anorni olib unga she'r yozar ekan, ko'nglidan teran mulohazalar o'tgani aniq:

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon.

Albatta, chistonda Uvaysiyning birinchi maqsadi o'quvchi tasavvurida anorni shakllantirish. U bu vazifani mukammal bajara olgan. Shoir a anor shaklini eshik va tuynuksiz gumbazga, uning donalarini yuzlarida parda tortilgan, yurakbag'ri qonga to'la "gulgunpo'sh" (qizil kiyimli) qizlarga mengzaydi.

Uvaysiy chistonini kuzatib, o'ziga xos timsol qo'llash mahoratining guvohi bo'lamiz. Shoir a anorning noyob, yangicha tasvirini yaratishga erishadi.

Atoulloh Husayniy Sharafiddin Ali Yazdiyning lug'z fanining badiiy shartlari borasidagi fikrlarini keltirib, shunday deydi: "Lug'zning she'riy jihatidan so'ng fasohatu ibora aniqlig'iyu ma'no latofatindag'i husnu fazilatig'a bois bo'lg'uchi shartlardan uldurkim, zikr etilgan mazkurning ahvolu avsofi takallufu egri iboralarsiz anga mos bo'lg'ay. ...Matlubni anglag'andin so'ng nozimning murodi ushbumu, yo'qmu degan shubha qolmag'ay".

Ko'rinadiki, lug'zning asosiy sharti Uvaysiy tomonidan mukammal bajarilgan. U anorni hech qanday shubhaga o'rin qoldirmay, aniq, tushunarli va ixcham shaklda tasvirlab bergan.

Ammo Uvaysiyning she'rdan maqsadi shu bilan yakunlanmaydi. Shoir a she'riy uslubiga xos bo'lgan ko'pma'nolilik ushbu asarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunosligimizda "Anor" chistonining bu jihati e'tirof etilgan: "To'rt misraga sig'dirilgan katta mazmunga anor ta'rifinigina emas, balki to'rt devor orasida ovoz chiqara olmasdan faryod qilayotgan, qavat-qavat niqob

orqasida yorug' olamni ko'rish imkoniyatidan mahrum etilgan millionlab mahzuna, munglig' ayollarning hayoti, taqdiri mujassamlashtirilgan". Anglashiladiki, shoira ikkinchi maqsadi anor donalarini qizlarga qiyoslash orqali ularning erksiz qismatiga e'tiborni qaratish.

Ammo, shoira she'riyatining umumiy mohiyatidan kelib chiqib fikrlasak, uning chistondan ko'zlagan uchinchi maqsadini ham anglash qiyin emas.

Uvaysiyning ushbu asarida anor foniy dunyo tilsimlarini o'zida mujassamlashtirgan ramziy timsol darajasiga ko'tariladi. Shoira anorning tashqi ko'rinishini cheku chegarasiz niliy gumbaz bo'lib ko'rinuvchi dunyoga qiyoslayapti: "Ul na gumbazdur: eshigi tuynugidin yo'q nishon".

Qizil rang bag'riqonlik, hijron, ayriliq ramzi. Parda esa solik bilan Olloh vasli o'rtasidagi to'siq.. Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu to'rtlikda shu paytgacha biz talqin etib kelgan zohiriy mazmundan tashqari, teran falsafiy, botiniy g'oya ham mujassamlashgan. Shoira anorda dunyo timsolini tasavvur etayapti. Anor dunyoga o'xshaydi. U shunday bir gumbazki, na eshigi bor, na tuynugi. Unda ko'plab insonlar makon qurgan. Ularning holidan xabar olinsa, u yerdagi hayotning asl mazmuni haqida tafakkur qilinsa, haqiqat ayon bo'ladi: Ilohiy visoldan mahrumlik. Bu yo'lda moddiy dunyoning to'siq, parda ekanligi.

Shoira anor tuzilishida ilohiy visoldan foniy dunyo pardasi bilan to'silgan, ayriliqdan bag'riqon kimsalar takdirini ko'rgandek bo'ladi.

Anor tilsimotini, asrorini anglash uchun, uning po'stini ochib, cheksiz kenglikka erishish kerak.

Demak, anor biz uchun ibrat. U kabi vujudiy qafasni, lahzalik olamning barcha to'siqlarini, moddiy manfaatu ehtiyojlarni yengib o'tibgina haqiqiy hurlikka, ruhiy erkinlikka yetish mumkin. Ana shundagina anor sirini anglaganimizdek, dunyo va Mutlaqiyat mohiyatiga yetamiz.

Shoira o'zining chuqur falsafiy tafakkur tarzidan kelib chiqib, anor timsolida keng qamrovli umumbashariy g'oyalar talqinini mujassamlashtiradi.

Atoulloh Husayniy “...nimaiki, lug’z ani bildirsa, maqsud o’shul bo’lur, aning o’zga bir nimaga ishora qilur – qilmasin nazarg’a olinmas”, deya ta’riflaydi. Ushbu e’tirofdan biz Navoiy an’analarini davom ettirgan Uvaysiyning chistonning tarixiy taraqqiyot bosqichida qanchalik katta o’rin tutganini anglaymiz. Chunki u chistonni donolik namoyishi, tafakkur o’yinlari darajasidan chuqur ijtimoiy-falsafiy fikrlarni mujassamlashtirib ifodalovchi yo’nalishga aylantirganining guvohi bo’lamiz. Yuqoridagi misollarda shoiraning chiston takomilidagi ulkan xizmatlarini ko’rish mumkin.

Uvaysiyning chistonni takomillashtirishdagi xizmati faqat shu bilan cheklanmaydi. Bizga ma’lumki, chistonlarda, asosan, so’z yoki so’zlar yashiringan bo’ladi. Tinglovchi diqqati so’zga qaratiladi. So’zlovchining maqsadi ham lafz bo’ladi. Ijodkor o’sha so’z ifodalayotgan narsaning sifatlarini tasvirlab beradi. Ammo Uvaysiy chiston asosiga holatni ham oladi. Tinglovchi diqqatini birgina so’zga emas, balki ruhiy holatni anglashga, uni kuzatishga qaratadi. Albatta, o’z-o’zidan chiston javobida ham so’z emas, balki tugal fikr-gap nazarda tutiladi:

Yolg’uzimda uchradi: ul dev edi yoki pari,
Ming boshi, qirq ergashi bor, yona sakkiz navkari.
Holga kelmas, butni taqmas, barchasi jallodvash,
To’rti chorlab o’nu ellik, menga yuzlandi bari,
Birining qo’lida uch yuz xanjaru to’rt yuz pichoq,
O’ning og’zida buldur: “Pora qil!”-deb gaplari!

Ushbu chistonning javobi “G’am haddin oshti” jumlasidir. Unda shoira chiston yaratishning bir necha usullaridan foydalangan. Ilk misralarda savol qo’yish usulini tatbiq etadi. Keyingi misralarda abjad hisobini qo’llagan. Shoiraning bu usullari chistonda ham chuqur ruhiy holat manzaralarini ta’sirli ifodalash imkonini beradi.

Asarda shoiraning abjad hisobini istifoda etish mahorati yaqqol namoyon bo’ladi. Unda ushbu hisob bo’yicha 10 ta son keltiriladi. Ular ifodalagan harflar

vositasida esa “G’am haddin oshti” jumlasini o’qiyimiz (1000-g’; 40-m; 8-h; 4-d; 10-i; 50-n; 1-alif; 3000-sh; 400-t; 10-i).

Mazkur chiston g’azal janrida yaratilgan. U a-a, b-a, v-a tarzida qofiyalangan. Vazni ramali musammani mahzuf (foilotun – foilotun – foilotun – foilun; -V– -V– -V– -V-).

Uvaysiy chistonlarining asosiy qismida savol qo’yish usuli yetakchilik qiladi. Jumboq, asosan, birinchi misrada keltiriladi. Shoiraning topqirlik bilan qo’llagan so’rog’i o’quvchi diqqatini bir nuqtaga jamlashga xizmat qiladi. Shundan so’ng, nazarda tutilgan narsaning sifat, belgi va xususiyatlari ta’riflanadi. Shoira chistonlarida nazarda tutilgan har bir narsa badiiy obraz darajasiga ko’tarilgan. Ularning asosini metaforik o’xshatishlar tashkil etadi. Jumladan, eshigi tuynugi yo’q gumbaz, qanotu parlari qip-qizil, ko’zga ko’rinmas qush, qonxo’r ikki daryo, cho’tir yuzli kelin, boshi bilan yuruvchi oyog’i yo’q mavjudot, jazirama yozda issiq, yashil to’nda yuruvchi jonzot va yana ko’plab noyob taxayyulot mahsuli bo’lgan timsollar. Ko’rinadiki, shoira chistonlarida nodir timsollar galereyasi bunyod etilgan. Ularning har biri o’tkir tafakkur mahsulidir.

Shoira deyarli barcha chistonlarida dastlabki misrada atalmishning shakliga e’tibor qaratadi. Uni tasvirlaydi. Keyingi misralarda esa uning holati, qilmishi, vazifasini ifodalashga o’tadi.

Ayrim chistonlarida shoira savol bilan bir qatorda abjad hisobidan ham unumli foydalanadi. Bu usul nazarga olingan narsani aniqlash imkonini kuchaytiradi.

Uvaysiy uchinchi tur chistonlarida yanada boshqacha yo’l tutadi. Ularda savol ham, abjad hisobi ham uchramaydi. Bunday chistonlar qisqa hajmga (2 misra) ega. Birinchi misrada atalmish haqida xabar-ma’lumot berilsa, ikkinchi misrada uning tabiatiga xos qat’iy hukm, xulosa bayon etiladi. Bunday namunalar sirasiga “Kun va tun”, “Suv”, “Qaychi”, “Makkajo’xori” kabi asarlarini kiritish mumkin:

Ikki mahbubeni ko'rdum, bir-birinin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan. (Kun va tun)

Bir-birini ko'rmagan ikki do'st. Ammo, oralaridan qil ham o'tmaydi. Ya'ni o'zaro juda qadrdon. Har doim yonma-yon va ayrilmas. Shu keltirilgan ta'riflarning o'zi o'quvchini tafakkur olamiga yetaklaydi. Ikki do'stning kimligini o'ylay boshlaydi. Shoira fikrini obrazli tarzda chuqur mantiq asosida ifodalaydi. Ikki mahbuba timsoliga istiora san'ati vositasida keng ma'no yuklaydi.

Shoira chistonlarida xalqona uslub yaqqol seziladi. Qo'llangan har bir so'z sayqallangan va o'zining muqim o'rniga ega. Hayotiy tajribalardan saralangan donishmandona xulosalar ifodalanadi. Ular zamiriga ba'zan yumor, ba'zan kinoya singdiriladi. Chistonda narsa nazarda tutilgan bo'lishiga qaramasdan, uning zamirida insoniy munosabatlar, odamzodga xos fe'l-atvor ham e'tiborga olingani sezilib turadi:

Ul nadurkim, bir kelin o'zi no'tir,
Etti qat parda ichida misli hur.

Javobi "Makkajo'xori" bo'lgan mazkur chiston xuddi shunday tasavvur uyg'otadi. Unda javobdan tashqari inson tabiatiga nisbatan o'tkir kinoya va yumor singdirilganini anglash qiyin emas.

Shoira chistonlari mahorat nuqtai nazaridan noyob iste'dod mahsullari. Ularda shakl va mazmunning mutanosibligi, timsollar olamining rang-barang va mukammal ishlangani, qofiya va radiflarning pursayqalligi tahsinga sazovordir.

Yuqoridagi kuzatuvlardan, Uvaysiyning, chiston yaratishda o'ziga xos mahorat sohibi ekanligi ma'lum bo'ladi. Shoira o'z uslubiga ega.

Birinchidan, u hajman qisqalikka intilgan. Shu sababli, chistonlari 2, 4, va 6 misradan iborat.

Ikkinchidan, Navoiy chistonlari uchun tanlangan vazn ohangi vazminroq (hazaji musammani solim), Uvaysiy chistonlarining barchasi esa nisbatan

yengilroq ohangga ega ramali musammani mahzuf va ramali musaddasi mahzuf vaznlarida yaratilgan. Bu shoira uslubining xalq og'zaki ijodira monandligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, u timsol tanlashda xalq og'zaki ijodi mahsullaridan, hikmat va naqlaridan unumli foydalanadi. Bu borada noyob iste'dodga eta ekanligini namoyish eta oladi.

To'rtinchidan, chistonlarida zohiriy va botiniy mazmunni mujassamlashtirib ifodalashga harakat qiladi. Narsa va ijtimoiy muammolar nazarda tutiladi.

Beshinchidan, shoira chistonlarida tashbeh, istiora, mubolag'a kabi badiiy san'atlar mahorat bilan qo'llanadi. Ba'zan kinoya, ba'zan yumor singdiriladi.

Ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'zbek mumtoz adabiyotidagi chistonning tarixiy takomilida Uvaysiy ijodining beqiyos o'rni bor. Shoira uni mazmun-mundarija jihatidan ham, badiiy mahorat va shakl xususiyatlari nuqtai nazaridan ham yuksak bosqichga ko'tarishga erishgan.

X U L O S A

✓ Jahon otin Uvaysiy XVIII asrning oxiri va XIX asrning I yarmida yashab ijod etgan iste'dodli shoiradir. U Marg'ilonning Childuxtaron mahallasida tug'ilgan. Ma'rifatli oilada tarbiya olgan. Otasi ikki tilda she'rlar yozgan adabiyot muxlisi, onasi Chinnibibi otin edi. Akasi Oxunjon Hofiz ham Jahon otinning tarbiyaviy kamoliga munosib hissa qo'shadi.

✓ O'zbek mumtoz adabiyotida Jahon otin Uvaysiy ijodi o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. U nafaqat mazmun, ma'no va badiiy san'atkorlik nuqtai nazaridan, balki janrlar takomilida ham takrorlanmas iqtidorini namoyish eta olgan. Xususan, g'azal janrining ajoyib namunalarini yaratadi. Uning g'azallarida ruhiy jo'shqinlik, ruhiy g'alayon, zamonada adolatsizliklaridan isyon kabi tuyg'ular jo'sh uradi. Mazkur g'azallar sodda va ravonligi, ohangdorligi, qofiya va radiflarning o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

✓ Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida musammat ijodkor fikr-g'oyalarini ifodalashda g'azalga nisbatan keng va cheksiz imkoniyatlarga ega. Shu sababli u Uvaysiy adabiy merosida alohida o'rin egallaydi. Uning musallas, murabba', muhammas, musaddas turlarida yozgan asarlari bizga ma'lum. Ular mavzu jihatdan rang-barang. Albatta, mumtoz adabiyot an'anasiga ko'ra musammatlardagi yetakchi mavzu ham ishq. Ammo, uning zamirida shoironing olam, odam, hayot mohiyati haqidagi teran xulosalari, orifona hikmatlari, ijtimoiy falsafalari ham o'z ifodasini topadi. Musammat shoira ichki "men"ini, o'zligini, dunyoqarash va tafakkur tarzini namoyon etish uchun cheksiz maydon vazifasini bajargan. Ularda Uvaysiy asarlaridagi lirik qahramonning ko'p qirrali, teran mulohazali, keng va rangin dunyoqarashga ega tabiati o'quvchini hayratga soladi.

✓ Nazira va tatabbu' she'rlar bitish o'zbek adabiyotining ilg'or vakillari ijodida dastlabki davrlardan boshlaboq, o'zida yangilikka bo'lgan intilishni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanilgan"¹. Tazmin usulida yaratilgan g'azallarda an'anaviylik bilan birga har bir shoirning o'ziga xos qirralari, dunyoqarash va

¹ Р.Орзибеков Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамма –Т –Т: Фан, 1976, 42-бет.

fikrlash tarzi ham namoyon bo'lgan. Tazmin, nazira, taxmis usullari shunchaki taqlidchilik emas, balki ular har bir iste'dodli ijodkor uchun ulkan mahorat maktabi vazifasini bajargan.

✓ Fard janri shoira ijodida muhim mavqeda turgan. Borliq haqida o'zi anglagan haqiqatlarni ifodalash, Chuqur falsafiy, hikmat darajasidagi fikrlarni bayon etishda qo'l kelgan. Fardda lirik qahramonning olam va odam mohiyati borasidagi mushohadalari falsafiy va donishmandlik nuqtai nazaridan ifodalangan. Lirik qahramon chuqur mulohaza yurgizuvchi faylasuf sifatida taassurot qoldiradi.

✓ Uvaysiyning, chiston yaratishda o'ziga xos mahorat sohibi. Shoira o'z uslubiga ega. Birinchidan, u hajman qisqalikka intilgan. Shu sababli, chistonlari 2, 4, va 6 misradan iborat. Ikkinchidan, Navoiy chistonlari uchun tanlangan vazn ohangi vazminroq (hazaji musammani solim), Uvaysiy chistonlarining barchasi esa nisbatan yengilroq ohangga ega ramali musammani mahzuf va ramali musaddasi mahzuf vaznlarida yaratilgan. Bu shoira uslubining xalq og'zaki ijodira monandligini ko'rsatadi. Uchinchidan, u timsol tanlashda xalq og'zaki ijodi mahsullaridan, hikmat va naqlaridan unumli foydalanadi. Bu borada noyob iste'dodga eta ekanligini namoyish eta oladi. To'rtinchidan, chistonlarida zohiriy va botiniy mazmunni mujassamlashtirib ifodalashga harakat qiladi. Narsa va ijtimoiy muammolar nazarda tutiladi. Beshinchidan, shoira chistonlarida tashbeh, istiora, mubolag'a kabi badiiy san'atlar mahorat bilan qo'llanadi. Ba'zan kinoya, ba'zan yumor singdiriladi.

✓ Xullas, o'zbek mumtoz adabiyotidagi g'azal, muhammas, fard, chiston, nazira-g'azallarning tarixiy takomilida Uvaysiy ijodining beqiyos o'rni bor. Shoira ularni mazmun-mundarija jihatidan ham, badiiy mahorat va shakl xususiyatlari nuqtai nazaridan ham yuksak bosqichga ko'tarishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1.1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

1.2. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

1.3. Каримов И.А. Юксак ма'навият – енгилмас куч. –Тошкент: Ма'навият, 2008.

1.4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожантириш концепсияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

1.5. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади, «Халқ сўзи», 2011 йил, 22-январ.

1.6. Каримов И.А. «Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида». – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

1.7. Каримов И.А. «Аждодларимизнинг бебаҳо мероси – абадиётга дахлдор ма'навий хазинадир», Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти. Халқаро конференциядаги ма'рузаси. – Самарқанд: 2014, 16-май.

II. MANBALAR:

2.1. Увайсий. Девон–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1963.

2.2. Увайсий. Нодира. Ўзбек шоирлари баёзи.–Тошкент: Фан, 1993.

- 2.3. Увайсий шеърятидан.. –Тошкент: 1980.
- 2.4. Увайсий. Кўнгил гулзори.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
- 2.5. Алишер Навоий. Бадоеъ ул- васат. МАТ. 20 жилдлик. 5- жилд. .– Тошкент: Ған, 1990.
- 2.6. Амирий. Девон. –Тошкент: Ған, 1972.

III. I L M I Y – N A Z A R I Y A D A B I Y O T L A R :

- 3.1. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент:Ған, 1991.
- 3.2. Атоуллоҳ Маҳмуд Ҳусайний. Бадойи ус-санойи. – Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
- 3.3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
- 3.4. Исҳоқов. Тарду акслар. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: 1972, 2-сон.
- 3.5. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Ған, 1983.
- 3.6. Исҳоқов Ё. Навоий ва ижод сабоқлари. –Тошкент: Ған, 1981.
- 3.7. Иброҳимова Э. Увайсий. –Тошкент: Ған, 1963.
- 3.8. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари.–Тошкент: Ған, 1980.
- 3.9. Носиров О ва бошқалар. Ўзбек классик шеърятти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи 1979.
- 3.10. Малпаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ған, 1976.
- 3.11. Навоий А. Маҷолис ун-нафрис. Асарлар. 15 жилдлик. 15-жилд. –Тошкент: 1968.
- 3.12. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Ған, 1976.
- 3.13. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Ған, 1976.
- 3.14. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
- 3.15. Қажомов А. Қўқон адабий муҳити. Асарлар. 10 жилдлик. 5- жилд..

–Тошкент:Мумтоз сўз, 2010.

3.16. Ҳасанов Б. Навоий асарлари бўйича қисқача луғат. –Тошкент: Фан, 1993.

3.17. Ҳаққулов И. Увайсий шеърляти. –Тошкент: Фан, 1992.

3.18. Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърй санъатлар ва мумтоз қофия. –Тошкент: Шарқ, 1948

IV. INTERNET MA'LUMOTLARI:

4.1. www.ziyonet.uz

4.2. <http://www.natlib.uz/>

4.3. <http://library.samdu.uz/>

4.4. <http://www.faak.uz/>

4.5. <http://www.literature.uz/>